BIZ — KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

O'zbekiston YOSHLAR ittifoqi

# YOSHLAR OVOZI

# Молодежь Узбекистана

№ 22-23 (16429)
2021-YIL
30-IYUN,
CHORSHANBA

MAXSUS SON

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ
YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU
@YOSHLAROVOZIUZ
@YOSHLAROVOZI

IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA





# YOSHLIK VA SHIJOAT TANTANASI

*Mana, besh yildirki, 30-iyun — Yoshlar kuni mamlakatimizda yoshlik va shijoat tantanasi, davlatimizning navqiron avlodga qaratayotgan ulkan e'tibori ramzi o'laroq keng nishonlanmoqda. Shu vaqt ichida bu ayyom eng qadrli bayramlardan biri sifatida yosh avlod qalbidan chuqur joy oldi.*

Sana munosabati bilan tashkil etilayotgan Yoshlar oyligi doirasidagi bayram tadbirlari millionlab yoshlarni qamrab olayotgani, ularda o'g'il-qizlar barcha soha va yo'nalishlar bo'yicha o'z bilim-salohiyatini, iqtidorini namoyish etish, innovatsion ishlanma va ixtirolarini ommaga taqdim qilish, eng muhimi, mehnatlari uchun munosib rag'bat olish imkoniyatiga ega bo'layotgani quvonarlidir.

Bu yil ham Yoshlar kuniga bag'ishlangan asosiy tantanalar xuddi shunday yondashuv asosida — keng va noan'anaviy tarzda o'tkazilmoqda.

Davomi 4-sahifada.

# YORQIN, ZAMONAVIY VA UNUTILMAS




6-7

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

## YOSHLAR KUNI MUNOSABATI BILAN YURTIMIZNING FAOL VA TASHABBUSKOR YOSH AVLOD VAKILLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RISIDA

*Bugungi kunda yangi O'zbekiston yoshlariga har tomonlama e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdek umummilliy maqsadni amalga oshirish uchun davlatimiz va jamiyatimizning barcha kuch va imkoniyatlari safarbar etilmoqda.*

*Bu jarayonda o'z taqdiri va kelajagini Vatanimiz taqdiri va istiqboli bilan uzviy bog'liq holda ko'radigan, shu yo'lda har qanday sinov va mashaqqatlarni yengib o'tishga, jasorat va matonat ko'rsatishga tayyor bo'lgan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallagan o'g'il-qizlarimiz safi tobora kengayib borayotganini alohida ta'kidlash lozim.*

*O'zining ijodiy va intellektual salohiyati, tanlagan kasb yo'nalishi va ijtimoiy hayotda erishgan muhim natijalari bilan turli sohalarda yurtimiz ravnaqiga, uning xalqaro obro'-e'tiborini yuksaltirishga munosib hissa qo'shayotgan, tengdoshlariga o'rnak va namuna bo'lib kelayotgan faol va yetakchi yoshlarimizni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida quyidagilar davlat mukofotlari bilan taqdirlansin:*

**«MEHNAT SHUHRATI» ORDENI BILAN**

**Sa'dullayev Alisher Zafar o'g'li** – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori

**«DO'STLIK» ORDENI BILAN**

**Abduraimov Behzod Abdurazakovich** – Amerika Qo'shma Shtatlari Missuri shtatidagi Park universiteti musiqa markazi rezidenti

**Daniyarov Abatbay Saparbayevich** – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi boshlig'i

**Zabrodina-Sattarova Inara Nailevna** – Uchtepa tumanidagi 2-bolalar va o'smirlar sport maktabining badiiy gimnastika bo'yicha murabbiysi, Toshkent shahri

**Kattaxanova Dilnozaxon Sobir qizi** – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rinbosari

**Normatov Xurshid Abdurashidovich** – Farg'ona shahridagi «Uz-Segang» qo'shma korxonasi ta'sischisi, Farg'ona viloyati

**Yudakov Aleksandr Andreyevich** – O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilg'or texnologiyalar markazi katta ilmiy xodimi

Davomi 2-sahifada.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

## «MARD O'G'LON» DAVLAT MUKOFOTI BILAN TAQDIRLASH TO'G'RISIDA

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda faollik ko'rsatib, o'zining bilim va iqtidori, intiluvchanligi va tashabbuskorligi, halol va samarali mehnati bilan Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, yangi O'zbekistonni barpo etish va uning xalqaro nufuzini oshirishga munosib hissa qo'shib kelayotgan, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va yuqori salohiyatga ega, xalq manfaati va yurt istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan fidoyi va mard o'g'lonlarimizni munosib rag'batlantirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat mukofotlari va geraldika bo'yicha komissiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining iqtidorli yigitlarini fan, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, adabiyot, san'at, sport, ishlab chiqarish, harbiy xizmat sohalari va huquqni muhofaza qilish organlaridagi faoliyatida erishgan alohida yutuqlari uchun «Mard o'g'lon» davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risidagi takliflari ilovadagi ro'yxatga muvofiq ma'qullansin.

«Mard o'g'lon» davlat mukofoti bo'yicha ko'zda tutilgan 28 ta mukofot o'rniga 2021 yil uchun istisno tariqasida 29 ta mukofot berilishi belgilansin.

2. «Mard o'g'lon» davlat mukofoti bilan taqdirlanganlarga sovrindorlik diplomlari va ko'krak nishonlari tantanali vaziyatda topshirilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi «Mard o'g'lon» davlat mukofoti sovrindorlarining har biriga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida pul mukofoti berilishini ta'minlasin.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va boshqa ommaviy axborot vositalariga «Mard o'g'lon» davlat mukofoti sohiblarining ibratli faoliyati, ularning noyob iste'dodi va erishgan yutuqlarini keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh.Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

*Toshkent shahri,*
*2021-yil 28-iyun*

*"Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar ro'yxati 2-betda.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

# YOSHLAR KUNI MUNOSABATI BILAN YURTIMIZNING FAOL VA TASHABBUSKOR YOSH AVLOD VAKILLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RISIDA

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

### «KELAJAK BUNYODKORI» MEDALI BILAN

**Abdatova Shahnoza Buriyevna** – O'zbekiston yoshlar ittifoqining Xovos tumani 16-umumiy o'rta ta'lim maktabidagi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi, Sirdaryo viloyati

**Abdinazarov Abduraxmon Zokirjon o'g'li** – Qiziriq tumani madaniyat bo'limi mutaxassisi, baxshi, Surxondaryo viloyati

**Abdurazoqov Olloyor Alijon o'g'li** – Uchko'prik tumanidagi «Mehrigiyo» xususiy korxonasining eksport-import masalalari bo'yicha direktori, Farg'ona viloyati

**Abduraxmonov Nuriddin Ulug'bekovich** – Xo'jaobod tumanidagi «Oliy standart tex» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Andijon viloyati

**Asadullayeva Visola Bexzod qizi** – Andijon shahridagi 13-umumiy o'rta ta'lim maktabi 11-sinf o'quvchisi, Andijon viloyati

**Atakulova Nargiza Abdiganiyevna** – «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyatining rux zavodi laboranti, Toshkent viloyati

**Axmedjanov Muzaffar Baxtiyor o'g'li** – Namangan shahridagi «Dashtbog'» mahalla fuqarolar yig'ini raisi, Namangan viloyati

**Jovliyev Javlonbek Ortiqovich** – Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining tayanch doktoranti

**Joldasova Shaxnoza Batirovna** – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi

**Islamov Samandar Baxodir o'g'li** – Jizzax shahridagi «Samandar shirinliklari» oilaviy korxonasi rahbari, Jizzax viloyati

**Kim Denis Vitalevich** – O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i

**Mamadiyev Farxodbek Qobil o'g'li** – Andijon tumanidagi «Clasika Shoes International» mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi, Andijon viloyati

**Muxtorov Mardonxo'ja Muxammadjon o'g'li** – Buvayda tumanidagi shaxsiy tomorqa yer egasi, Farg'ona viloyati

**Muhammadyunusova Mohistara Muhammadilxom qizi** – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi

**Ortiqov Umidjon To'xtasin o'g'li** – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti akademik litseyining informatika fani o'qituvchisi

**Polvonov Abbosxon Saidabrorxon o'g'li** – Pop tumanidagi «Chodak nihol tex» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Namangan viloyati

**Po'latov Jahongir Xolboy o'g'li** – Toshkent shahridagi «Cambridge» o'quv markazi bosh direktori

**Ruxiddinov Xayrulla Xayriddin o'g'li** – Parkent tumanidagi 5-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi, Toshkent viloyati

**Saydullayeva Shodiyona Sayfulla qizi** – Navoiy shahridagi «Minor Millenium» mas'uliyati cheklangan jamiyatining minorali kran mashinisti, Navoiy viloyati

**Toremuratov Nzamatdiin Begdiyarovich** – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Bo'zatov tumani bo'limi boshlig'i, Qoraqalpog'iston Respublikasi

**O'roqova Mahliyo Toshtemirovna** – Paxtachi tumanidagi 24-umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi, Samarqand viloyati

**Farmanov Bobur Baxromovich** – «Ziyo Forum» ilm, fan va ta'lim-tarbiyani rivojlantirish fondi direktori

**Xakimov Sardor Anvarjon o'g'li** – Oltiariq tumanidagi «Oltiariq barakali» fermer xo'jaligi boshlig'i, Farg'ona viloyati

**Xojiyev Dilshodbek Maksudbek o'g'li** – Tuproqqal'a tumanidagi «New Best Style» mas'uliyati cheklangan jamiyatining ishlab chiqarish sexi boshlig'i, Xorazm viloyati

**Xolboyeva Shohsanam Anvarjon qizi** – Toshkent davlat pedagogika universitetining 1-bosqich magistranti

**Xudayorov Uyg'un Xolmurod o'g'li** – Yakkabog' tumanidagi «Qorabayir» otchilik majmuasi chavandozi, Qashqadaryo viloyati

**Chuyanova Yelena Alijan qizi** – Xalqaro Press-klub bo'lim boshlig'i

**Shakirov Said Ravshan Sobirovich** – Buxoro shahridagi «Monday Labs» mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori, Buxoro viloyati

**Shermatova Iroda Baxtiyor qizi** – Toshkent farmatsevtika institutining tayanch doktoranti

### «SHUHRAT» MEDALI BILAN

**Abdullayev Gulomjon Ozodovich** – Erkin kurash bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi

**Abdimurodov Akmal Abdivoxid o'g'li** – Sergeli tumanidagi «Mashhur Tohir Zuhro» xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati elektrigi, Toshkent shahri

**Abdunazarov Sobir Ibragimovich** – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining axborot-tahlil va ijro nazorati boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari

**Abdurazzaqov Bunyodbek Begijon o'g'li** – Asaka tumanidagi 24-umumiy o'rta ta'lim maktab-internatining 10-sinf o'quvchisi, Andijon viloyati

**Abjalilova Saboxatxon Soibjon qizi** – Jalaquduq tumanidagi «Harir tola» mas'uliyati cheklangan jamiyatining ipak qurti boquvchisi, Andijon viloyati

**Adhamjonov Temurbek Baxtiyor o'g'li** – «Najot ta'lim markazi» nodavlat ta'lim muassasasi rahbari, Toshkent shahri

**Artikxodjayeva Barnoxon Alisher qizi** – O'zbekiston Milliy universitetining tayanch doktoranti

**Axmedova Irodaxon Shoxitbekovna** – Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining Andijon viloyati bo'limi bosh mutaxassisi

**Axmedova Nilufar Ilhomboy qizi** – Respublika yoshlar markazining Xorazm viloyati bo'linmasi inklyuziv ta'lim to'garagi rahbari

**Baltabayeva Nargiza Baxadirovna** – Qoraqalpoq davlat universitetining 1-bosqich magistranti, Qoraqalpog'iston Respublikasi

**Berdimuratov Jalgasbay Karlibay uli** – Yunon-rum kurashi bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi

**Buranov Otabek Ibragimovich** – Angor tumanidagi «Angor Surxon g'ururi» mas'uliyati cheklangan jamiyati kombaynchisi, Surxondaryo viloyati

**Dayibekova Zaynab Kazbekovna** – Qilichbozlik bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi

**Jafarov Saidjamshid Rustam o'g'li** – Buxoro davlat universitetining 4-bosqich talabasi, Buxoro viloyati

**Jovliyeva Sevinch Faxriddin qizi** – Yashnobod tumanidagi 19-bolalar musiqa va san'at maktabining an'anaviy xonandalik bo'limi o'quvchisi, Toshkent shahri

**Jumayev Ramozon Xasanovich** – Sho'rchi tumanidagi «Hasan ota asallari» fermer xo'jaligi boshlig'i, Surxondaryo viloyati

**Jumayev Ergash Ruzimuradovich** – O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasining Turkiya Respublikasidagi vakili

**Izatullayev Shoxrux Alisher o'g'li** – Bekobod tumanidagi «Yuksalish Premier Group» nodavlat ta'lim muassasasi rahbari, Toshkent viloyati

**Islomov Majidxon Shamsiddinovich** – Urgut tumanidagi «Urgut sanoat servis» oilaviy korxonasi rahbari, Samarqand viloyati

**Qurbonov Bobur Samadullo o'g'li** – Qarshi shahridagi 17-umumiy o'rta ta'lim maktabining chaqiruvgacha yoshlarni tayyorlash rahbari, Qashqadaryo viloyati

**Qo'chqorov Fazliddin Ergash o'g'li** – Shayxontohur tumanidagi «Premium Village» mas'uliyati cheklangan jamiyati arxitektori, Toshkent shahri

**Mamtaliyeva Fotimaxon Odiljon qizi** – Oltinko'l tumanidagi 35-umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Andijon viloyati

**Matniyazova Gulnoza Jumaboy qizi** – Dzyudo bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi

**Mustayeva Yelena Yurevna** – Namangan shahridagi Prezident maktabi direktori o'rinbosari, Namangan viloyati

**Musurmonov Alisher Qahromonovich** – Jizzax shahridagi «Alitech Website Solutions» xususiy korxonasi rahbari, Jizzax viloyati

**Reimbayeva Saiyora Joldasbayevna** – Qo'ng'irot tumanidagi 39-umumiy o'rta ta'lim maktabining informatika fani o'qituvchisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi

**Rustamov Ruslan Ulug'bekovich** – Qarshi tumanidagi «Ruslan Media» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qashqadaryo viloyati

**Sadullayeva Safina Erkinovna** – yengil atletika bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi

**Sodiqov Sardor Sodiqovich** – Qarshi shahridagi «Global Education in Karshi» nodavlat ta'lim muassasasi direktori, Qashqadaryo viloyati

**Sulaymonov Sohib Samadovich** – Qorovulbozor tumanidagi «Buxoro Real Moto» mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori, Buxoro viloyati

**Sultonov Abdulaziz Abduraxim o'g'li** – «Zakovat» intellektual klubi nodavlat notijorat tashkiloti mutaxassisi

**Suxinin Nikita Viktorovich** – Yunusobod tumani elektr ta'minoti korxonasi elektr montyori, Toshkent shahri

**Tashov Mizrob Maxmudovich** – Samarqand shahridagi «Me'mor O'tkir Chovka» mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi, Samarqand viloyati

**Turdibekova Sitora Shavkat qizi** – Boks bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi

**To'xsanov Shaxrillo G'aybullo o'g'li** – Xalqaro frilanserlik platformalari frilanseri, Buxoro viloyati

**Ubaydullayev Abduvoxid Muxiddin o'g'li** – Bag'dod tumanidagi «Bag'dod zamin asali» dehqon xo'jaligi boshlig'i, Farg'ona viloyati

**Ubaydullayev Nuriddin Toxir o'g'li** – Toshkent davlat pedagogika universitetining tayanch doktoranti

**O'ktamova Nigina Jasur qizi** – Boks bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi

**Umarov Mavsimjon Mamurjonovich** – Oltiariq tumanidagi «Mavsum agrologistika» ishlab chiqarish kooperativi rahbari, Farg'ona viloyati

**Usenov Salamat Batirxanovich** – Konimex tumanidagi «Konimex-Sarjal-Qosay» mas'uliyati cheklangan jamiyati bosh cho'poni, Navoiy viloyati

**Xaydaraliyev Mirjalol Maxmudjon o'g'li** – O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 1-bosqich talabasi

**Xakimova Shaxnozaxon Kaxramon qizi** – Oltinko'l tumanidagi hunarmand-do'ppido'z, Andijon viloyati

**Xatiyev Komiljan Javliyevich** – Mirzacho'l tumanidagi dehqon xo'jaligi ishchisi, Jizzax viloyati

**Xolbayeva Nargiza Ibadullayevna** – O'zbekiston yoshlar ittifoqining Sirdaryo viloyati Kengashi raisi

**Xudayshukurov Dilmurod Xolmurodovich** – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Jizzax viloyati boshqarmasi boshlig'i

**Soy Vladimir Eduardovich** – O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilg'or texnologiyalar markazi kichik ilmiy xodimi

**Sharifova Mushtariy Ixtiyor qizi** – «Tesla» kompaniyasining axborot texnologiyalarini rejalashtirish bo'yicha tahlilchisi

**Shodiyev Abbos Ne'mat o'g'li** – Navoiy davlat konchilik institutining metallurgiya kafedrasi dotsenti, Navoiy viloyati

**Yuldashev Oybek Baxodir o'g'li** – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Andijon viloyati boshqarmasi boshlig'i

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

*Toshkent shahri,*
*2021-yil 29-iyun*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyundagi PQ–5164-son qaroriga ilova*

# «Mard o'g'lon» davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar RO'YXATI

**Madraimov Rustamjon Matkarimovich** – Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filialining 4-bosqich talabasi (Qoraqalpog'iston Respublikasi)

**Nurniyazov Arman Arzubay uli** – Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filialining 4-bosqich talabasi (Qoraqalpog'iston Respublikasi)

**Bektashev Islomjon Baxtiyor o'g'li** – Andijon davlat tibbiyot institutining 6-bosqich talabasi (Andijon viloyati)

**Olimov Xayrullo Xolmirzayevich** – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy qism guruh mutaxassisi (Andijon viloyati)

**Jumayev Jahongir Uktam o'g'li** – Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasining guruh katta mutaxassisi (Buxoro viloyati)

**Raxmatov Anvarbek Zufarjonovich** – Qorako'l tumanidagi xalqaro matematika maktabining 9-sinf o'quvchisi (Buxoro viloyati)

**Safarov Qodiri Qoplonbek Abdujalil o'g'li** – Jizzax politexnika institutining 2-bosqich talabasi (Jizzax viloyati)

**Turdiqulov Hamidulla Alisher o'g'li** – R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabining 2-bosqich o'quvchisi (Jizzax viloyati)

**Abdurashidov Bobur Kamolovich** – Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtining 4-bosqich kursanti (Qashqadaryo viloyati)

**Karomatov Davurxon Fozil o'g'li** – Qarshi davlat universitetining 4-bosqich talabasi (Qashqadaryo viloyati)

**Petrov Login Aleksandrovich** – Navoiy shahridagi 13-umumiy o'rta ta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi (Navoiy viloyati)

**Sharopov Shohrux Shavkatovich** – Karmana tumanidagi «Karmana Al-Aziz Avitsenna» mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi (Navoiy viloyati)

**Asilbekov Islom Egamberdi o'g'li** – O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining 3-bosqich talabasi (Namangan viloyati)

**Umurzakov Bekzod Nemat o'g'li** – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Uchqo'rg'on tumani qo'riqlash bo'limi safdor-xodimi (Namangan viloyati)

**Abdullayev Abduraxmon Feruzovich** – Samarqand shahridagi 17-umumiy o'rta ta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi (Samarqand viloyati)

**Oripov Shaxzod Ilxom o'g'li** – Samarqand viloyati Urgut tumani favqulodda vaziyatlar bo'limining yong'in-qutqaruv qismi smena boshlig'i

**Faxriyev Jahongir Alisherovich** – Toshkent pediatriya tibbiyot institutining 5-bosqich talabasi (Samarqand viloyati)

**Karimov Dilshod Mashrab o'g'li** – Oqoltin tumanidagi 7-bolalar musiqa va san'at maktabi direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari (Sirdaryo viloyati)

**Mavlonov Yorbek Abduvait o'g'li** – Sirdaryo viloyati «New Level Shoes» oilaviy korxonasi rahbari

**Ayubjonov Asadbek O'lmasovich** – V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabining 8-sinf o'quvchisi (Surxondaryo viloyati)

**Murodulloyev Ma'rufjon Fayzullo o'g'li** – O'zbekiston Milliy paralimpiya terma jamoasi a'zosi (Surxondaryo viloyati)

**Avazov Sardorjon Erkin o'g'li** – Toshkent davlat agrar universitetining qishloq xo'jaligi fitopatologiyasi kafedrasi professori (Toshkent viloyati)

**Umaraliyev Fazliddin Faxritdin o'g'li** – O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 4-bosqich talabasi (Toshkent viloyati)

**Karimov Davlatjon Shermaxomot o'g'li** – Erkin Vohidov nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi (Farg'ona viloyati)

**Haydarov Temurbek Tohirjon o'g'li** – Farg'ona davlat universitetining 2-bosqich talabasi (Farg'ona viloyati)

**Jumaniyazov Aminzoda G'ayratovich** – O'zbekiston davlat akademik katta teatri yetakchi opera solisti (Xorazm viloyati)

**Ko'palbayev Azamat G'ayrat o'g'li** – O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo'shinlari xodimi (Xorazm viloyati)

**Abdukayumov Firdavs Zoxidovich** – Toshkent shahridagi Prezident maktabining 11-sinf o'quvchisi (Toshkent shahri)

**Anvarov Fazliddin Ubaydulla o'g'li** – Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti 1-bosqich talabasi (Toshkent shahri)

# BIZ BUYUK KELAJAK BUNYODKORLARIMIZ!

***XXI asr — dunyo miqyosida kuchli raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar keskin tus olgan murakkab bir jarayonda kechmoqda. Bunday sharoitda xalqlarning ertangi taqdirini uning intellektual salohiyati, tafakkuri va o'z-o'ziga talabchanligi belgilaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi. El-yurtimiz umid qilayotgan bunday ulkan salohiyat faqat yoshlarda bor! Shu nuqtayi nazardan qaraganda, nafaqat yoshlarimiz, balki Vatanimiz, butun xalqimiz taqdiriga daxldor bo'lgan yoshlar siyosati sohasi, uning buguni va ertangi istiqboli birinchi darajali masala bo'lib qolaveradi.***



**Alisher SA'DULLAYEV, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi**



Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va talabchanligi bilan so'nggi besh yil mamlakatimiz yoshlari hayotida tub burilishlar davri bo'ldi. Ayniqsa, 2021-yil "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb e'lon qilinib, davlat dasturi qabul qilingani bu boradagi ishlarni mutlaqo yangi bosqichga ko'tardi.

O'tgan davrda yoshlar siyosati samaradorligiga doir 80 ga yaqin qonun va qonunosti hujjati qabul qilindi. 2016-yil 14-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, 2019-2023-yillarga mo'ljallangan "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi", 2020-2025-yillarga mo'ljallangan "Kitobxonlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi" shular jumlasidandir.

Aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etadigan mamlakatda ularga qaratiladigan e'tibor ham shunga yarasha bo'lishi kerak. Ya'ni qonun hujjatlari qabul qilindi, imkoniyat yaratildi, degan umumiy xulosa bilan cheklanib bo'lmaydi. Ular ijrosini ta'minlash, jamiyatda eng maqbul tizimni yaratish ham zarur. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya, Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi qoshida "Yoshlar parlamenti"; O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti; Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil etilgani tahsinga loyiqdir.

Yoshlarning muammolarini o'rganib, ularga yetarlicha amaliy yordam berish maqsadida ijro hokimiyatida ham ijobiy o'zgarishlar bo'ldi. Masalan, 2017-yildan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shaharlar hokimlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimi joriy etildi. Bu yigit-qizlarning muammolarini hududlar kesimida chuqur o'rganib, yechim topishda qo'l kelyapti.

Albatta, har bir inson doim baxtli yashashni istaydi. Mamlakat o'z fuqarolariga shu imkoniyatni yaratib berishi kerak. Bugun yoshlarimiz o'z istaklari sari bemalol odimlay olishi uchun har soniyada ular qayg'usi bilan yashashimiz lozim. Shu maqsadda Toshkent shahri, Toshkent, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlari tajribasi asosida barcha tuman (shahar)larda yoshlar bilan ishlash bo'yicha yangicha tizim joriy etildi va tuman (shahar)lar kesimida "Yoshlar dasturlari"ni amalga oshirish yo'lga qo'yildi.

Buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning shunday satrlari bor:

*Umrni zoye etma,*
*mehnat qil,*
*Mehnatni saodatning*
*kaliti bil.*

Darhaqiqat, inson doimo mehnatning orqasidan baxtga erishadi. Quvonarlisi, mehnatga chanqoq yoshlarimiz safi juda keng. Faqat ularga munosib ish topib berish zarur. Shu bois, Yangi O'zbekistonda yoshlar bandligini ta'minlash har doimgidan ham dolzarb vazifa sifatida belgilandi. So'nggi uch yil mobaynida 841 147 nafar yosh ishli bo'lgani, Prezidentimiz tashabbusi bilan ishsiz yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan yangi tizim – "Yoshlar daftari" joriy etilgani shuning dalilidir. Shu tizim asosida o'tgan qisqa davr ichida respublikadagi 8 714 ta mahallada yashayotgan 18-30 yoshdagi jami 6 484 806 nafar yoshning 5 451 442 nafari (yoki 84 foizi) bilan birma-bir muloqot o'tkazildi. Suhbatlar asosida 682 787 nafar (ijtimoiy himoyaga, iqtisodiy va psixologik qo'llab-quvvatlashga muhtoj, ishsiz) yosh "Yoshlar daftari"ga kiritildi.

Bu yoshlarning 293 956 nafari ishlash, 108 367 nafari tadbirkorlik faoliyatini boshlash, 75 850 nafari tadbirkorlarga va 35 475 nafari "Ustoz-shogird" an'anasi asosida usta-hunarmandlarga shogird tushish, 75 850 nafari kasb-hunar o'rganish istagini bildirgan bo'lsa, 110 399 nafari ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik yordamga muhtoj ekani aniqlandi. Natijada shu yilning 1 mart holatiga ko'ra bu yoshlardan 15 731 nafari ish bilan ta'minlandi, 3 363 nafari tadbirkorlik faoliyatini boshladi, 6 080 nafari kasb-hunarga o'qitildi, 11 196 nafari tadbirkorlarga, 2 612 nafari usta-hunarmandlarga biriktirildi. 15 680 nafar yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik muammolari hal etildi.

Hududiy va mahalliy hokimliklar qoshida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarning muammolarini hal qilishga ko'maklashish uchun "Yoshlar jamg'armalari" tashkil etilib, unga 113 milliard 526 million so'm mablag' ajratildi. Bugungi kungacha bu mablag'larning 4 milliard 61 million so'mi yoshlar manfaatlari uchun yo'naltirilgan.

Qiyinchiliklarga uchragan yoshlarga o'z hayotini o'zgartirishi uchun kuchli motivatsiya berish, halol mehnat qilish, chet tili, kasb-hunar va biznesni o'rganishga qiziqtirish maqsadida 140 turdagi qo'llanma, 481 turdagi audio va video materiallar to'plami tayyorlanib, hududlarga yetkazildi. Biznesda katta yutuqlarga erishgan, kasbining mukammal ustasiga aylangan shaxslar va tadbirkorlar bilan 30 dan ortiq motivatsion uchrashuvlar tashkil etildi.

Ayni paytda "Yoshlar daftari"ni elektronlashtirish, "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy apparat kompleksi negizida yaratilgan daftar.mehnat.uz yagona elektron platformasi imkoniyatlaridan keng foydalanish ko'zda tutilmoqda.

"Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi doirasida 8 635 ta biznes loyihaga jami 1 trillion 830 milliard so'm miqdorida imtiyozli kredit mablag'lari ajratish orqali 42 421 ta yangi ish o'rinlari yaratilishiga erishildi. Shuningdek, Davlat dasturi doirasida yoshlarning 31,4 milliard so'mlik 63 ta loyihasiga Jamg'arma kafilligi taqdim etilib, ularning tadbirkorlik faoliyatini boshlashiga ko'maklashildi.

Hududlarda 19 ta "Yosh tadbirkorlar" kovorking-markazlari hamda 212 ta "Yoshlar mehnat guzari" komplekslari foydalanishga topshirilib, ularda jami 2 380 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Doim iftixor bilan haqli ravishda O'zbekiston iste'dodlar yurti deya e'tirof etamiz. Ammo iste'dod yuzaga chiqarilmas, olis qishloqlar va ovullardagi yigit-qizlarning qiziqishlari bilan hisoblashmas ekanmiz bu e'tirof faqat so'zdagina qolib ketaveradi. Shu bois, har bir yoshning hali o'zi ham anglab yetmagan, bilmagan iste'dodini (gohida inson o'zida qanday iqtidor borligini bilmay ham o'tib ketadi!) yuzaga chiqarish bizning vazifamizdir.



Buni Prezidentimiz teran anglagan holda 5 ta muhim tashabbusni ilgari surdi. Dastlab Bo'ka, Quyichirchiq va Uchtepa tumanlarida tajriba sifatida joriy etilib, yana 42 ta tuman (shahar)ning 168 ta olis va og'ir ahvoldagi mahallalarida bu tajriba muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Shuningdek, Andijon, Qashqadaryo, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahrida yoshlarning startap loyihalarini rivojlantirishga qaratilgan IT parklar qurildi. Buning barchasi yuqorida aytganimizdek, iste'dodlarni yuzaga chiqarishga qaratilgan yumushlarning bir qismi xalos.

Birgina kitobxonlikka qaratilgan e'tibor nafaqat badiiy adabiyot, balki o'quvchi-yoshlar orasida ilm-fanga bo'lgan qiziqishning kuchayishiga xizmat qilmoqda. Albatta, hozirgi globallashuv, tezkor zamonda ilm o'rganmasdan biron natijaga erishib bo'lmaydi.

Zero, bugun mamlakatimizda 107 ta Raqamli texnologiyalar o'quv markazi tashkil etilib, "Ma'rifat karvoni" tadbirlari doirasida 3 milliondan ortiq kitob yoshlarga yetkazib berildi, "Yosh kitobxon" tanlovi, "Bir million dasturchi" kabi o'nlab yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

2020-yil 25-dekabr kuni ilk bor O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokida O'zbekiston yoshlari forumi o'tkazildi va unda 30 ming nafar yosh qatnashdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yilning 27-yanvar, 10-fevral hamda 13-aprel kunlari bo'lib o'tgan yig'ilishlarda yoshlar bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasidagi muhim vazifalar belgilab berildi.

Darhaqiqat, yoshlar jamiyatning intellektual potensiali sifatida namoyon bo'lib, o'zining yoshi, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari jihatidan mehnat bozorida eng ko'p ko'makka muhtoj bo'lgan qatlam sanaladi. O'zbekistonda ishsizlar soni yildan yilga oshib bormoqda va hozirgi kunda yoshlar orasida ishsizlik darajasi 20,1 foizni tashkil etmoqda. Bu bizni jiddiy o'ylashga, aniq chora-tadbirlar asosida olib borayotgan ishlarimizni yanada jadallashtirishga undaydi.

Tan olish kerakki, inson oliy ma'lumot olmasdan ham yaxshi kasb egasi, tadbirkor bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan bugun ishsiz yoshlarning bandligini ta'minlash, masalani tezkor hal etish uchun yangi tizim yaratishga ehtiyoj bor edi. Dastlab, har bir tuman (shahar) hamda mahalla kesimida "Yoshlar balansi"ning elektron bazasi ishlab chiqildi. So'ng Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda "Yoshlar: 1+1" dasturi doirasida "Yoshlar daftari"dagi yoshlarni o'qitish bo'yicha haftalik o'quv kurslari yo'lga qo'yildi. Loyiha doirasida yil yakuniga qadar 100 ming nafar ishsiz yosh kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitiladi.

Yana bir gap, Bandlik vazirligi, sektor rahbarlari bilan birgalikda 206 ta shahar va tumanning 824 ta sektorida ishsiz yoshlarni o'quv markazlarida kasbga o'qitish orqali 2021-yilda 300 ming nafar ishsiz yoshning bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlar belgilangan. Bundan tashqari, yangidan yaratilayotgan onlayn platforma orqali kamida 20 ming nafar yosh talab yuqori bo'lgan 15 ta kasb-hunarga o'qitiladi.

Ayni vaqtda "mahallabay" tizimi asosida kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitiladigan 500 ming nafar yoshlar ro'yxati shakllantirilmoqda. Kelgusida o'quv kursini tamomlab, sertifikat olgan yoshlarga oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida imtiyozli kreditlar ajratiladi. "Har bir tadbirkor – yoshlarga madadkor" tamoyili asosida ko'ngilli tadbirkorlarga ishsiz yoshlarni biriktirish orqali 100 ming nafar yoshlarning bandligini ta'minlash bo'yicha mutasaddi tashkilotlar va sektorlar rahbarlari bilan ishlar boshlab yuborilgan.

Joylarda har 10 gektar suvli maydondagi paxta va g'alla ekin yeridan 1 gektarini yoshlarga dehqonchilik uchun ajratish bo'yicha Farg'ona tajribasi asosida barcha viloyatlarda ishlar boshlab yuborilgan. Tuman va shaharlarda "Yoshlar sanoat zonalari" tashkil etiladi.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish borasida ham qator yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan, tuman va shaharlar kesimida besh muhim tashabbusni keng joriy etish bo'yicha aniq va samarali chora-tadbirlarni belgilab oldik. Axborot texnologiyalari vazirligi bilan birgalikda 100 ta "Raqamli texnologiyalar o'quv markazi" faoliyati yo'lga qo'yilib, 20 ming nafar yosh dasturchilar tayyorlanadi. Bu mamlakatning ilmiy salohiyatini keskin oshirishda qo'l kelishi tabiiy...

Shu kunlarda yurtimizda Yoshlar oyligi keng miqyosda, ko'tarinki ruhda nishonlanmoqda. Shu fursatdan foydalanib, barcha yoshlarimizni 30-iyun — Yoshlar kuni bilan samimiy qutlayman! Sana munosabati bilan o'tkazilayotgan festivallar, tanlov va qizg'in bahs-munozaralar, bayramona uchrashuvlar yoshlar hayotidagi eng esda qolarli lahzalardan biri sifatida bir umrga xotirasida muhrlanib qolishiga ishonaman.

# YOSHLIK VA SHIJOAT TANTANASI






Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Kuni kecha poytaxtimizdagi Botanika bog‘ida boshlangan “Uchinchi renessans bunyodkorlari” mavzusidagi yoshlar forumi bugun ayni avj nuqtasida davom etmoqda.

Toshkent shahar hokimligi tashkillashtirgan forumga respublikamizning barcha viloyatlaridan eng faol yoshlar, jumladan, Prezident va ijod maktablari o‘quvchilari taklif etilgan. Ayniqsa, tantanali tadbirga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashrif buyurgani kechaga o‘zgacha ko‘tarinkilik bag‘ishladi.

Botanika bog‘i “Ilm-fan hududi”, “Tafakkur sinovlari hududi”, “Yosh kitobxonlar uchun”, “Yosh rassomlar”, “Virtual olam” kabi turli pavilonlarga ajratilgan. Forum doirasidagi qiziqarli viktorina va o‘yinlar, mumtoz kuyqo‘shiqlar ijrosi, rassomchilik va qo‘l mehnati buyumlari ko‘rgazmalari, innovatsion texnologiyalar namoyishi va boshqa noodatiy chiqishlar yig‘ilganlar e’tiborini o‘ziga jalb etmoqda.

Misol uchun, Prezident ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tomonidan tashkil etilgan hududda o‘quvchilar o‘zlari yaratgan dasturlarni ommaga namoyish qilmoqda. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot texnologiyalari maktabi o‘quvchilari yangi dasturlar ustida ishlash tajribalari bilan o‘rtoqlashmoqda. Barcha fanlardan test sinovlarini o‘z ichiga olgan dasturni ishlab chiqqan 9-sinf o‘quvchisi Muhammadiyor Shokirov ilovani takomillashtirish ustida izlanish olib borayotganini ta’kidlaydi.




— Dasturimga hozircha nom tanlaganim yo‘q, — deydi Muhammadiyor. — Ammo raqobat bor joyda, o‘sish bor deganlaridek, uning asosiy vazifasi bellashish asosida o‘quvchilarning bilimini oshirishga qaratilgan. Hozir dasturga faqatgina fanlar kiritilgan, nasib bo‘lsa, buni mukammallashtirib, milliy sertifikat, IELTS kabi imtihonlarni ham o‘tkazishga mo‘ljallamoqchiman. Shunda foydalanuvchilar mustaqil ravishda o‘zining bilim darajasini bilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Agar mehnatim bilan bilan kimnidir ushbu sohaga qiziqtira olsam, men uchun katta baxt.

Shunday maydonchalardan yana biri — “Tafakkur sinovi”. Bu yo‘lakdan yurar ekansiz, anvoyi gullarga ko‘zingiz tushadi. Yoshlarni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularning ekologik bilimlarini oshirish maqsadida tashkil etilgan ushbu maydonchada mehmonlar o‘simliklarning turlari, qayerlarda va qanday sharoitda o‘sishi haqida o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishi mumkin. Mazkur aksiya doirasidagi muloqotlarda Respublika yoshlar teatri aktyori Sherzod Bozorov o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashdi.

— Bu yerda yoshlar bilan yangi tanishuvlar bo‘lyapti. Yoshlar o‘zlari yaratgan kashfiyotlari bilan do‘stlashmoqda. Ekologiya qo‘mitasining burchagi tashkil etildi. Unda yoshlarga tabiatni asrash va bu bo‘yicha qanday qilib qo‘shimcha ma’lumotlar olish haqida axborot berilyapti.

Bundan tashqari, “Yashil tashabbus” aksiyasi doirasida tashkil etilgan viktorina ishtirokchilar qiziqishini yanada oshirdi. Yer sayyorasining tuzilishi, tabiat, geografiya haqidagi savollarga javob berish orqali o‘z bilimlarini sinayotgan yoshlar turli sovg‘alarga ham ega bo‘lyapti. Viktorina davomida eng qiyin deya topilgan 3 ta savolga javob berganlarga Yoshlar ishlari agentligi va Yoshlar ittifoqining qimmatbaho sovg‘alari va’da qilingan. Ya’ni birinchi o‘rin sohibiga oliy o‘quv yurtidagi bir yillik kontrakt puli to‘lab beriladi, ikkinchi va uchinchi o‘rin egalari noutbuk va televizor bilan taqdirlanadi.

Maydonchada mnemonika, eslab qolish, kubik-rubik terish mahoratini sinovdan o‘tkazish burchaklari ham o‘rin olgan. Dunyoda keng ommalashgan, bizda esa endigina rivojlanayotgan mnemonika sport turi yoshlarda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Miyani rivojlantirish va uni boshqarish orqali katta natijalarga erishish maqsadida shug‘ullanayotgan va qaysidir jihatdan buni hozirdanoq uddalay olgan kichik yoshdagi ishtirokchilarni ko‘rib, boshqalar ham motivatsiya olishi turgan gap.




Tadbir doirasida yoshlar qalbida milliy san’atimizga mehrni oshirish va qiziquvchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti 50 dan ortiq iste’dodli talabalarining tasviriy va amaliy san’at, haykaltaroshlik, kulolchilik, dizayn, xalq hunarmandchiligi va badiiy foto yo‘nalishlaridagi ekspozitsiyalari, bino va kutubxonalar maketlari taqdimotini o‘tkazmoqda. Gilam to‘qish, rassomlik, haykaltaroshlik bo‘yicha amaliy tarzda mahorat soatlari o‘tilib, qiziquvchilar ham o‘zini sinab ko‘ryapti. Maydonchaga kulolchilik charxi keltirilib, ishtirokchilar ko‘z oldida sopol ko‘za yasalayotgani namoyishga o‘ziga xos tabiiy muhit baxsh etayotgandek.

Ko‘rgazmada Milliy rassomlik va dizayn instituti tasviriy san’at fakulteti talabasi Nilufar Ahmadaliyeva ham o‘z ijodiy ishlari bilan ishtirok etyapti. U 2020-yilda “Yil talabasi” respublika ko‘rik-tanlovida “Yilning eng tashabbuskor targ‘ibotchi talabasi” nominatsiyasi g‘olibi bo‘lgan.

— Keng qamrovda o‘tkazilayotgan festivaldagi erkin va ijodiy muhit menga juda yoqdi, — deydi Nilufar. — Bundan ilhomlanib, beixtiyor ijodiy jarayonga kirib qoldim. Shu kabi ma’naviy-ma’rifiy festivallar yanada ko‘proq bo‘lishini istayman!

Yosh kitobxon va yosh ijodkorlar burchagidagi loyihalar “Uchinchi renessansga ma’rifat bilan” mavzusida seminar-trening bilan boshlanib, nutq madaniyati, ifodali o‘qish, davrada so‘zlash bo‘yicha Zulfiya Mo‘minova, Adhambek Alimbekov, Muslimbek Yo‘ldoshev, Rahimboy Jumaniyozov kabi atoqli shoir va yozuvchilarimiz, adabiyotshunos olimlar, suxandonlar ishtirokidagi mahorat darslariga, viktorinalarga ulanib ketdi. Savollarga tezkorlik va aniqlik bilan javob bergan har bir ishtirokchi eng qimmatbaho sovg‘a hisoblangan — kitoblar jamlanmasiga ega bo‘lmoqda.

— Shoir va yozuvchilar bilan uchrashuv menda unutilmas taassurot qoldirdi. Nutq madaniyati, qanday so‘zlash kerakligi haqida yangi ko‘nikmalarni egalladim. Maktabga qaytgach, bu yerda o‘rganganlarimni do‘stlarimga ham aytib beraman, — deydi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ibrayim Yusupov nomidagi ijod maktabining 9-sinf o‘quvchisi Gulnisa Asamatdinova.



**Lobar QODIROVA,**
**Mashhura NASRIDDINOVA,**
**Shahribonu RAHMATOVA**

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI — AMALDA





# 841 000 DAN ZIYOD YOSHNING BANDLIGI TA'MINLANGAN

**Yoshlar — ertamiz egalari, kelajagimiz bunyodkorlari. Ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yetuk va barkamol insonlar etib tarbiyalash bugunning eng dolzarb vazifasidir. Shu haqda so'z borar ekan, o'tgan davr mobaynida 841 147 nafar yoshning bandligi ta'minlanganini ta'kidlash joiz.**

**Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimizda yoshlar siyosati bo'yicha mutlaqo yangi tizimga asos solingani bu yo'nalishdagi ishlarni yuqori bosqichga olib chiqdi. Xususan, joriy yilda hayotga tatbiq etilayotgan "YOSHLAR DAFTARI" loyihasi xalqimiz e'tirofiga sazovor bo'ldi.**

## "YOSHLAR DAFTARI" LOYIHASI DOIRASIDA:

- **8 714** ta mahallada yashayotgan 18-30 yoshdagi jami **6 484 806** nafar yoshning **5 451 442** nafari bilan muloqot o'tkazildi;
- ijtimoiy himoyaga, iqtisodiy va psixologik ko'makka muhtoj, ishsiz **682 787** nafar yosh **"Yoshlar daftari"**ga kiritildi;
- yilning birinchi choragida ulardan **15 731** nafari ish bilan ta'minlandi;
- **3 363** nafari tadbirkorlik faoliyatini boshladi;
- **6 080** nafari kasb-hunarga o'qitildi;
- **11 196** nafari tadbirkorlarga, **2 612** nafari usta-hunarmandlarga biriktirildi;
- **15 680** nafar yoshning ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik muammolari hal etildi;
- hududiy va mahalliy hokimliklar qoshida **"Yoshlar daftari"**ga kiritilgan yoshlarning muammolarini hal qilishga ko'maklashish uchun tashkil etilgan **"Yoshlar jamg'armalari"**da **167** milliard **539** million so'm mablag'lar shakllantirilib, shu mablag'lar hisobidan **34 253** nafar yosh qo'llab-quvvatlandi.

Qolaversa, yil boshidan buyon **24** ta "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari" tashkil etilib, **118** ta loyiha amalga oshirildi. Natijada **843** ta ish o'rni ochildi.

*Prezidentimiz raisligida joriy yil 13-aprel kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosi asosida yilning II choragida yoshlar bandligini ta'minlash hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi barcha sektor hamda mahallalar kesimida alohida reja tasdiqlandi.*

*Unga ko'ra, II chorakda 229 ming 832 nafar yoshning bandligini ta'minlash belgilab olingan edi. Shunga muvofiq, hozirgi kungacha Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda jami 92 388 nafar yoshning bandligi ta'minlandi.*

## SHUNDAN:

- **33 896** nafar yosh doimiy va jamoat ishlariga joylashtirildi;
- **28 987** nafariga tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun **633** milliard **280** million so'm miqdorida kredit ajratildi;
- **24 705** nafar yoshga **6 913** gektar yer maydonlari ajratildi;
- **4 319** nafar yoshga **19** milliard **253** million so'm subsidiya berildi;
- **481** nafar yosh tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi orqali ish bilan ta'minlandi.

Aytish joizki, yoshlar bandligi bilan bog'liq yana ko'plab ijtimoiy loyihalar bugun o'z samarasini berayotir. Birgina misol, "Yoshlar 1+1" loyihasi asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 21,5 ming nafardan ortiq yoshlar kasb-hunarga o'qitilgan bo'lsa, yana 15,5 mingdan ziyodi tadbirkor hamda usta-hunarmandlarga biriktirildi.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish ham muhim masala. Buning uchun esa o'quv muassasalari va boshqa tegishli obyektlarni zarur inventar hamda adabiyotlar bilan ta'minlash lozim. Ayni shu maqsadda 152 mingga yaqin badiiy kitoblar ta'lim muassasalari, kutubxona va o'quv markazlariga yetkazib berildi.

Yil boshidan buyon minglab yoshlar madaniyat va san'at yo'nalishida 6 ming 701 ta to'garak orqali vaqtlarini mazmunli o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ular sport, axborot texnologiyalari, kitobxonlik va boshqa yo'nalishlarga qamrab olindi.

Yana bir quvonarli voqea shuki, yoshlar tadbirkorligini mikrokreditlashning yangi tizimi joriy etildi. Tadbirkorlik tashabbusiga ega jismoniy shaxslar, shu jumladan, yoshlar va xotin-qizlarga biznesni boshlash uchun 33 million so'mgacha mikrokreditlar ta'minotsiz, mikrofirma hamda kichik korxona ta'sischilariga esa 225 million so'mgacha mikrokreditlar ajratildi.

Shuningdek, joriy yilda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash doirasida 45 million AQSh dollari, ularni kasb-hunar, xorijiy tillarga o'qitish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish uchun 5 million AQSh dollari miqdorida mablag' ajratiladi. Natijada 15 ming nafar yoshlarning o'qishi va o'z biznesini boshlashi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Ta'kidlash o'rinliki, yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda tijorat banklari bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik o'z natijasini bermoqda. Misol uchun, "Mikrokreditbank" ATB bilan hamkorlikda tajriba tarzida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumanida kredit olish istagidagi yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshirish uchun qisqa muddatli o'quv-seminar tashkil etildi. O'quvni muvaffaqiyatli tamomlagan yigirma nafar yigit-qizga foiz stavkasi Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasiga teng bo'lgan 1 milliard 31,7 million so'mlik imtiyozli kreditlar ajratildi.

Farg'ona shahridagi O'zbekiston — Janubiy Koreya xalqaro universiteti hamda Buxoro davlat universitetida tajriba-sinov tariqasida "Biznes akselerator" faoliyati yo'lga qo'yildi. Ular faoliyatini muvofiqlashtirib borish maqsadida www.accelerators.uz sayti ishga tushirilgani mazkur yo'nalishdagi ishlar samaradorligini oshirishda muhim drayver vazifasini o'tamoqda.

Umuman, Yangi O'zbekiston yoshlarini qo'llab-quvvatlashga oid barcha islohotlar samaralari mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati amalda ekanini va navqiron avlod vakillari hayotida tub burilish yasayotganini faxr bilan tilga olish mumkin.



"TAHSIN — 2021"






# YORQIN, "TAHSIN" YOSHLAR

***Bugungi yoshlar, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, Yangi O'zbekistonimizning "oltin fondi"dir. Oxirgi yillarda mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor ko'lami kengayib, mazmunan yangilanib borayotgani bu yondashuv amalda o'z tasdig'ini topayotganini bildiradi. Bugun yoshlar siyosati ustuvor ahamiyatga molik masalalardan biriga aylandi. Darhaqiqat, mamlakatimizda bilimli hamda iste'dodli yigit-qizlarni aniqlash, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, qobiliyatini yuzaga chiqarish bo'yicha salmoqli ishlar qilinmoqda.***

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli yig'ilish bayoniga muvofiq, 30-iyun — Yoshlar kuni arafasida O'zbekiston yoshlar ishlari agentligi tomonidan "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik" shiori ostida "Yoshlar oyligi" tadbirlari keng nishonlangani ham shular jumlasidandir.

Mazkur tadbirlarning mantiqiy davomi sifatida Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatri maydonida yurtimizning eng ilg'or yoshlarini "Tahsin" milliy mukofoti bilan taqdirlash marosimi o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi rahbariyati, hukumat a'zolari, diplomatik korpus vakillari, jurnalist hamda blogerlar ishtirok etgan tantanali marosimda ilm-fan, sport, xalqaro aloqalar, madaniyat, innovatsiya, tibbiyot va boshqa sohalarda Vatan taraqqiyotiga hissa qo'shib kelayotgan faol yigit-qizlar rag'batlantirildi.

Aytish joizki, "Tahsin" milliy mukofoti 2019-yilda ilm-fan, sport, xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, madaniyat, innovatsiyalar, tibbiyot kabi yo'nalishlarda O'zbekiston taraqqiyotiga hissa qo'shayotgan, o'z sohasida muvaffaqiyatga erishgan, yetakchilik qobiliyatiga ega, ijtimoiy faol, ijodkor va tashabbuskor yoshlarni rag'batlantirish maqsadida ta'sis etilgan edi. O'tgan yili koronavirus pandemiyasi ortidan yurtimizda joriy etilgan karantin sababli tadbir tashkil etilmadi. Ammo bu yilgi "Tahsin" milliy mukofotini topshirish marosimi yoshlar uchun chinakam esda qolarli voqeaga aylandi.

Tadbirning o'ziga xosligi shundaki, u xorijdagi

**Muhammadali ESHONQULOV** — zamonamiz yoshlarining kumiri. Xalqaro toifadagi iqtisodchi, tadbirkorlik asoslari va muvaffaqiyatga erishish sirlari haqidagi treninglardagi nutqi bilan ijtimoiy tarmoqlarda 20 milliondan ziyod auditoriya to'play olgan murabbiy. Yoshlarning haqiqiy motivatori.

**Shaxzod BAXODIROV** — O'zbekiston kelajagi bo'lgan minglab yoshlar ilmiga poydevor maskanlar asoschisi. U asos solgan "Thompson school" o'quv markazini tamomlangan 1 100 nafar yosh O'zbekiston va dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi eng nufuzli oliy o'quv yurtlari talabasiga aylanishgan. «IELTSONLINE.UZ» kompaniyasi yoshlarga masofadan turib jahon tillarini o'rganish mumkinligini isbotlab kelmoqda.

**ARMI 2020** — erkaklardan qolishmaydigan, To'marisning mard avlodlari! Dunyoning 30 ta mamlakatidan kelgan 160 dan ortiq jamoa ishtirok etgan nufuzli «Harbiy tibbiy estafeta» xalqaro o'yinlarida Rossiya, Belarus va boshqa raqiblariga hech qanday imkoniyat qoldirmasdan ishonchli g'alabaga erishgan o'zbekning mard jasur ayollar jamoasi!

**Abdurahmon AZIMXOJAYEV, Abdulxodi ABDULVOXIDOV, Xusniddin SUYAROV, Hazrat SUYUNOV** — umri mangulikka daxldor mard harbiylar. O'zgalar quvonchi, o'zgalar baxti, o'zgalar hayoti uchun o'z jonini fido qilgan jasorat timsollari.

**Xojiakbar IBRAGIMOV** — noma'lum dushman ko'ziga tik boqqan ilk qahramon! Koronavirus atalmish dahshatli ofat O'zbekistonga ilk marta kirib kelganida, butunlay yangi dushmanga tik turib qarshi chiqqan, ilk koronavirus bilan kasallanish holati aniqlangan bemorga birinchi tibbiy yordam ko'rsatib, o'z xizmat vazifasiga sidqidildan yondashgan tibbiyot xodimi.

**Nodirbek ABDUSATTAROV** — o'zbek sporti kelajagi! Jahon shaxmati tarixida beshinchi eng yosh grossmeyster. Shaxmat bo'yicha Markaziy Osiyo va jahon chempioni.

**Sabina TASHKENBAYEVA** — nafosat malikasi! Ketma-ket uch yil davomida qit'amizning eng tengsiz badiiy gimnastikachisi. Tokioda bo'lib o'tadigan Yozgi Olimpiada o'yinlarida O'zbekiston sharafini himoya qiladigan gimnastikachi.

**Nigina O'KTAMOVA** — o'zbek boks tarixida qizlar o'rtasida ilk bor jahon chempioni bo'lgan o'zbek qizi. Yoshlar o'rtasida Osiyo chempioni. O'zbekiston milliy terma jamoasining eng yosh a'zosi.

**Miyasar DAO'LETBAYEVA** — xushovozi bilan ko'ngillarni zabt etgan iste'dod! Qoraqalpog'istonning Bo'zatov tumanida Prezident tashabbusi bilan o'tkazilgan "Yoshlar ovozi" respublika festivali sovrindori.

**Axror HUSHVAQTOV** — afsonaviy baxshilar sulolasining yettinchi avlod vakili. Nihol davlat mukofoti sovrindori, 20 ga yaqin baxshichilik yo'nalishidagi asarlar muallifi.

**Javlonbek JOVLIEV** — mustaqil O'zbekiston tarixidagi romanchilikda o'ziga xos shov-shuvga sabab bo'lgan "Qo'rqma" romani muallifi. Dovrug'i qo'shni mamlakatlarga ham yetib, 2021-yilda Afg'oniston xalqaro "Oltin qalam" mukofoti bilan taqdirlangan.

GQ, “Oskar”, Forbes va shu kabi boshqa yirik mukofotlarning eng yaxshi an’analari formatida tashkil etilgan. G‘olib va nominantlar qizil yo‘lakcha bo‘ylab yurib kelishdi, g‘oliblarga taassurotlari bilan o‘rtoqlashish uchun so‘z berildi. Marosim televideniye orqali jonli efirda namoyish etildi. Bu yurtimizning barcha yoshlariga bayram shukuhidan birdek zavq olish hamda jarayonga bevosita guvoh bo‘lish imkonini yaratdi.

Yosh iste’dod sohiblari, insonlar hayotini saqlab qolish yo‘lida jasorat ko‘rsatgan qahramonlar, millionlab yoshlarni ezgu g‘oyalar atrofida birlashtirayotgan tashabbuskor yigit-qizlarni munosib e’tirof bilan tabriklash maqsadida o‘zbek estradasining mashhur yulduzlari retro qo‘shiqlarni kaver usulida ijro etishgani ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

“Tahsin – 2021” milliy mukofoti alohida shaxslardan tashqari “Zakovat” intellektual o‘yini, “Ezgu amal”, “IMAN”, “Mehr orolni qutqaradi”, “Metsenat”, “Kelajak yoshlari”, “Mehrli qo‘llar”, “Mehr” operatsiyasi film treyleri, “Mehr” operatsiyasi, Xotira roligi, ARMI ayollar jamoasi kabi loyiha va guruhlarga ham taqdim etildi.



# ZAMONAVIY VA UNUTILMAS





## SO‘Z “TAHSIN – 2021” MILLIY MUKOFOTI G‘OLIBLARIGA:

**Miyasar DAO‘LETBAYEVA:**

*— Katta hayot sari ildamlayotgan har qanday yoshga birgina maqtov, shirin so‘z uning yanada olg‘a intilishiga, katta marralarni ko‘zlashiga turtki bo‘ladi. Men o‘zimni Prezidentimiz tashabbusi bilan o‘tkazilgan Bo‘zatov — “Yoshlar ovozi” respublika festivali kashfiyotlaridan biri deb hisoblayman. Bugun kichik mehnatlarim katta tahsinga sazovor bo‘ldi. Bu menga faqat va faqat kuch, g‘ayrat, ertangi kunga ishonch bag‘ishlaydi. Shu fursatdan foydalanib yurtimizdagi barcha yoshlarni bayram bilan muborakbod etaman. Hamda barcha yoshlar nomidan bizga yaratilayotgan sharoitlar uchun minnadorchilik bildirmoqchiman. Yana bir bor e’tibor uchun tashakkur.*

**Shaxzod BAXODIROV:**

*— Bu yilgi bayram har doimgidan o‘zgacha ruhda tashkil etilmoqda. Men yoshlarga ta’lim beradigan “Thompson school” va “IELTSONLINE. UZ” loyihalarim uchun mukofotga loyiq ko‘rildim. Bu e’tibor, ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rliklar, ayniqsa, kamtarona xizmatlarimiz yuksak sharafga loyiq ko‘rilganidan mamnunman. Fursatdan foydalanib yoshlar kuni bilan barcha tengdoshlarim, opa-singil, aka-ukalarimizni tabriklayman. Ularning vatan ravnaqiga hissa qo‘shishdek sharafli faoliyatiga rivoj tilayman.*

**Rasul JUMAYEV:**

*— Men 27 yoshimda fan nomzodi, 28 yoshda qishloq xo‘jaligi fan doktori, professor unvonini qo‘lga kiritdim. Albatta, bular o‘z-o‘zidan bo‘lmadi. Barchasini mamlaktimizda ilm-fanga e’tibor va yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar sabab qo‘lga kiritdim. Ishonamanki, mamlakatimiz yoshlariga berilayotgan bunday imkoniyatlar ko‘pdan-ko‘p yosh olimlar yetishib chiqishiga zamin yaratadi.*

**Iqbol PARDAYEVA tayyorladi.**

# MUKOFOTI SOVRINDORLARI

**Saida RASHIDOVA** — bolalar qalbini zabt etgan, o‘zbek, ingliz va rus tillarda nashr qilingan “Do‘pka voqeasi” bolalar ertak kitobi muallifi. Kitobxon Onalar Klubi asoschisi.

**Tillaniso ESHBOEVA** — adabiyotimizda o‘xshashi yo‘q yo‘nalishdagi “Sunbula” nomli hikoyalar to‘plami muallifi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi.

**Sa’dullo QURONOV** — o‘z kitobini dunyoning eng mashhur onlayn-do‘koni Amazonda sota olgan o‘zbek adibi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, adabiyotshunos olim, bolalar va o‘smirlarning sevimli yozuvchisi.

**Farrux MURODOV va Nargiza QUVONOVA** — issiq o‘rnini 310 km uzoqlikdagi, Samarqand viloyati Nurobod tumanining olis Ag‘ron qishlog‘idagi 54-maktab bolalariga ingliz tilidan ta’lim berishga almashgan oila. Fidoyilik timsoli bo‘lgan pedagoglar.

**Rasul JUMAYEV** — haqiqiy ilm odami. 27 yoshda fan nomzodi, 28 yoshda qishloq xo‘jaligi fan doktori, professor unvonini qo‘lga kiritgan respublikadagi eng yosh olim.

**Firdavs SOBIROV** — o‘zbekistonlik bo‘lajak “Mendeleyev”. Xalqaro Kimyo olimpiadasi bronza medali, Xalqaro Mendeleyev olimpiadasi oltin medal sohibi.

**Temurbek ADXAMOV** — imkoniyati cheklangan yoshlarga ta’lim berayotgan va ularni ish bilan ta’minlayotgan ITga ixtisoslashgan O‘zbekistondagi eng yaxshi maktablardan biri “Najot” ta’lim o‘quv markazi asoschisi. “YouTube”da 125 mingga yaqin obunachiga ega bo‘lgan, eng iqtidorli yoshlar haqida hikoya qiluvchi “Osmondagi bolalar” loyihasi muallifi.

**“MEHR” insonparvarlik operatsiyasi.** Ular urush ichida yashagan umidsiz qalblarga qayta hayot bag‘ishladi. Suriya, Iroq va Afg‘onistondagi qurolli to‘qnashuv zonalarida qolib ketgan 500 ga yaqin ayollar va bolalar ko‘nglida yangi umid uyg‘ota oldi va ularni O‘zbekistonga qaytarish bo‘yicha insonparvarlik operatsiyasini amalga oshirdi.

**“ZAKOVAT” intellektual o‘yini** — bilimlarni charxlashda yoshlarning eng ommabop intellektual o‘yini. 500 dan ortiq efirga uzatilgan ko‘rsatuvlarda, minglab intellektual turnirlarda minglab iqtidorlarni kashf qilgan loyiha.

**“Ezgu amal” xayriya jamg‘armasi** — katta qalb egalari. Saraton kasalligi va tibbiy yordamga muhtoj bo‘lgan, og‘ir kasallikka chalingan 9 mingga yaqin bolalar va oilalarga ko‘mak berayotgan xayriya fondi. Eng namunali ko‘ngillilar jamoasi-2021 nominatsiyasi g‘olibi.

**IMAN platformasi** — investitsiyalar makoni! O‘zbekistonga 2 milliard dollar investitsiya olib kirgan birinchi yirik startap loyiha IMAN moliyaviy texnologiya platformasi.

**Jo‘rabek QAHHOROV** — ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi shaxslar uchun adabiyotlar chop etadigan Brayl bosmaxonasi asoschisi. Uning yordamida o‘zbek va rus tillarida 800ga yaqin kitoblar chop etildi va ixtisoslashtirilgan maktablarga sovg‘a qilindi.

**Orolga qayta hayot baxsh etish yo‘lidagi fidoyilar.** Orol dengizining qurigan tubida “yashil qoplamalar” – himoya o‘rmonzorlarini barpo etgan.

*Dunyoda taraqqiy etgan xalq
ilm vositasi ila taraqqiy etadi.
Asir va zabun bo'lganlar esa ilmsizlikdan.*

**Mahmudxo'ja BEHBUDIY**







**Qadamidan o't chaqnab,
ko'zlari yonib turgan aziz yoshlar!
Barchangizni yaqinlashib kelayotgan**

## 30-iyun — Yoshlar kuni

**bilan samimiy qutlaymiz!
Sizlarning ilm olish, kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishish yo'lidagi barcha intilishlaringizni qo'llab-quvvatlashga, bu borada zarur shart-sharoitni yaratib berishga hamisha tayyor ekanimizni ta'kidlashdan mamnunmiz.**

## Bayramingiz qutlug' bo'lsin!

# ANDIJON TIBBIYOT INSTITUTI ®

# HAYOTIMIZNI O'ZGARTIRGAN BESHTA MUHIM TASHABBUS




Mamlakatimizda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan beshta muhim tashabbus ilgari surildi.

Bu – yoshlarni madaniyat, san'at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalarini o'z ichiga oladi. Besh muhim tashabbus, dastlab, Toshkent viloyatining Bo'ka tumani va Toshkent shahrining Uchtepa tumanida tajriba sifatida joriy etildi. Shuningdek, 42 ta tuman va shaharlarning 168 ta olis va og'ir ahvoldagi mahalla fuqarolar yig'inlarida bu tajriba muvaffaqiyatli amalga oshirildi.



**O'zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida "Besh tashabbus loyiha ofisi" faoliyati yo'lga qo'yildi.**

Bugungi kunga qadar 5 tashabbus doirasida "Orzumdagi inson bilan uchrashishni istayman", "Maktab teatri", "Rassom ustaxonasida mehmonda", "Bir million dasturchilar", "Ayollarni ish bilan ta'minlash", "Har ayolga bir hunar", "Google Dev Fest" loyihalari bilan birga quyidagi yirik tadbirlar hayotga tatbiq etildi:

- ✓ "Quvnoq startlar" musobaqasi
- ✓ "Sport doim yutadi" shiori ostida chekish, alkogol mahsulotlari va giyohvandlikka qarshi kurashish maqsadida sport tadbirlari
- ✓ "Yosh kitobxon" respublika tanlovi
- ✓ "Bir bolaga — besh kitob" kitob marafoni.

## Birinchi tashabbus

**(yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish bo'yicha)**

✓ Yoshlarni madaniyat va san'atga jalb etish yo'nalishida baxshichilik va maqom maktablari faoliyati yo'lga qo'yildi. Termizda Baxshichilik, Qo'qonda Hunarmandchilik xalqaro festivallari o'tkazildi.

✓ Respublikamizdagi barcha tuman (shahar) madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha 1,5 mingta to'garak tashkil etildi. 6 ta madaniyat markazi qayta ta'mirlandi.

✓ "Men nechun sevaman O'zbekistonni?!" mavzusida ijodiy ishlar tanlovi tashkil etildi. Tanlovda 1 million 730 ming nafarga yaqin o'quvchi yoshlar ishtirok etdi.

✓ Yosh dizaynerlarga o'z salohiyatini namoyish etishlariga ko'maklashish maqsadida Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida "Uzbekistan Fashion Week" xalqaro modalar namoyishi o'tkazildi. BAAning nufuzli brendi – ASHI studiyasi o'z kolleksiyasini yurtimiz moda ixlosmandlariga namoyish etdi.

✓ Germaniyada bo'lib o'tgan 69-Berlin Xalqaro kinofestivalida ilk bor mamlakatimiz yosh kinoijodkorlari qatnashdi. Unda mamlakatimiz kinoturizmi salohiyati, tarixiy obidalarimiz, diqqatga sazovor joylarimiz, xalqaro "PROlogue" kinofestivalimiz targ'ib qilindi.

## Ikkinchi tashabbus

**(yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasidagi qobiliyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratib berish bo'yicha)**



✓ Sportni ommalashtirish yo'nalishida 2019-2023-yillarda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi.

✓ Olimpiya o'yinlari, jahon va Osiyo chempionatlari g'olibi bo'lgan 204 nafar sportchi tuman va shaharlarga biriktirildi.

✓ 15 ta sun'iy qoplamali sport maydonchalari qurilib, 9 tasi qayta ta'mirlandi, 2 ta maktabda yangidan sport zallari qurilib, 41 tasining sport zali qayta ta'mirlandi.

✓ Yoshlarning jismoniy chiniqishi uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida "Sport karvoni" loyihasi doirasida Qoraqalpog'iston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi 230 ta bolalar-o'smirlar sport maktablari hamda 7542 ta umumta'lim maktablariga umumiy qiymati 50 milliard so'mlik 96 turdagi sport jihozlari, inventarlari va kiyimlari yetkazib berildi.

✓ 2019-yil 1-7-may kunlari respublikamizning barcha hududlarda "Yoshlar sport haftaligi" doirasida jismoniy tarbiya va ommaviy sport tadbirlari tashkil etildi. Ushbu sport haftaligida 20dan ortiq sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazildi va 1 mlnga yaqin yoshlar qamrab olindi.



✓ "Yoshlar kuni" munosabati bilan joylarda jami 32 ming nafar yoshlar ishtirokida 14 ta "Youth Day" nomli 5 kmga ommaviy yugurish marafonlari o'tkazildi.

## Uchinchi tashabbus

**(aholi va yoshlar orasida kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanishni tashkil etish bo'yicha)**



✓ Aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida respublika bo'yicha 30 ta Raqamli texnologiyalar o'quv markazi tashkil etildi. O'quv markazlarida 50 ta yangi ish o'rinlari tashkil etilib, ularda 19 ta fan dasturi ishlab chiqildi.

✓ Yoshlarga kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini o'rgatish, yoshlarning intellektual bilimlarini yanada oshirish maqsadida Samarqand shahridagi Yoshlar markazida "IT markaz" tashkil etildi.

✓ Respublika bo'yicha 19 ta "Mehribonlik" uylari va bolalar shaharchalari zamonaviy kompyuter jamlanmalari bilan ta'minlanib, internet va "ZiyoNet" ta'lim tarmog'iga ulandi.

✓ Bugungacha 3433 ta xalq ta'limi muassasalari, 1836 ta maktabgacha ta'lim muassasalari va 1127 ta sog'liqni saqlash muassasalariga jami 4154 km optik tolali aloqa liniyalari tortilib, 3672 ta xalq ta'limi, 1205 ta maktabgacha ta'lim va 1469 ta sog'liqni saqlash muassasalari yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga ulandi.

## To'rtinchi tashabbus

**(aholi, ayniqsa, yoshlar madaniyatini yuksaltirish, ular orasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha)**

✓ "Yoshlar kutubxonasi" rukni ostida 47 ta nomdagi 470 ming dona badiiy adabiyot chop etilib, respublikamizdagi barcha ta'lim muassasalarining kutubxonalariga yetkazildi.

✓ "Ma'rifat karvoni" tadbirlari doirasida hududlarga 3 milliondan ortiq kitoblar yetkazib berildi.

✓ Sirdaryo viloyatida yosh oilalarni kitobxonlikka keng jalb qilish maqsadida "Eng yaxshi kitobxon oila" tanlovi o'tkazilib, g'olibga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovg'asi sifatida "Spark" avtomashinasi berildi.

✓ Har yili yuz minglab yoshlar ishtirokida "Yosh kitobxon" respublika tanlovi o'tkazilmoqda.

## Beshinchi tashabbus

**(xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash ishlarini tizimli tashkil etish bo'yicha)**

✓ Qizlarimizning kasb ko'nikmalarini mustahkamlash, hayotda munosib o'rin egallashi, ularni doimiy ish bilan band qilish maqsadida 2019-yili 75 ta tumanda 111 ta tikuv-trikotaj majmualari tashkil etilib, 35 ming nafar yoshlar ishga joylashtirildi.



✓ Xotin-qizlar uchun jami 170 mingga yaqin ish o'rni yaratildi.

✓ Tijorat banklari hamda Xotin-qizlar va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'lari hisobidan 172 mingdan ziyod xotin-qizlarga 4,9 trillion so'm kreditlar ajratildi.

✓ Besh muhim tashabbus doirasida 21 ming 500 nafar qizlar qisqa muddatli kasb-hunar kurslarida o'qitildi.

✓ Yosh xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, gender tenglik va ular bandligini ta'minlash maqsadida "Qizlar ovozi" platformasi va "Qizlar ovozi" klubi tashkil etildi.

**Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay.**

**Imom al-BUXORIY**




# NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI jamoasi



***Butun O‘zbekiston yoshlari, jumladan, talabalarni yurtimiz bo‘ylab keng nishonlanayotgan Yoshlar kuni bilan qizg‘in muborakbod etadi. Siz, aziz yoshlarga shu muqaddas Vatanning porloq kelajagi, mustahkam tayanchi ekaningizni chuqur his etgan holda o‘z oldingizga qo‘ygan yuksak marralarni zabt etishingizda omadlar yor bo‘lishini tilab qoladi!***

®

ЗНАЙ НАШИХ!

# МНЕ ВСЕГДА НРАВИЛОСЬ УЧИТЬСЯ

***Одинокая девичья фигурка среди победителей конкурса «Третий Ренессанс – взгляд молодежи». Диплом II степени в номинации «Пути изменения учебного процесса и методики для повышения интереса студентов к качественному образованию в высшей школе». Держится призер уверенно: организационный психолог с лидерскими наклонностями.***




Не случись этой встречи, быть бы учащейся академического лицея при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности Олесе Баловой студенткой названного вуза. Огромную роль в выборе высшего образовательного учреждения сыграла семейная психология в расписании, потому что молодая выпускница факультета психологии сразу же влюбила лицеистов в загадочный предмет.

– Именно Елизавета Кабацкова показала нам, ловившим каждое слово высокоэрудированного специалиста, – говорит Олеся, – что психология – это не пространные разговоры, а наука, способная влиять на развитие общества. Так что истоки моей первой победы – захватывающие занятия. Мне всегда нравилось учиться. Мотив узнавать что-то новое был ведущим. Настолько вдохновилась мировоззрением преподавателя, подачей материала, коммуникативными навыками. Поняла: хочу окончить тот же вуз и стать такой же, психология – это мое. Поступление в филиал Московского государственного университета имени Ломоносова в Ташкенте – первое достижение на пороге самостоятельной жизни. Психология манила своей таинственностью, а раскрывать тайны – процесс притягательный.

Познавательный мотив любознательной девушки не исчез, а, по ее словам, «лишь разрослся». Сфера организационной и консультативной психологии привлекает еще больше, она в приоритете читательских интересов выпускницы бакалавриата, в данное время сотрудницы отдела духовности и просветительства филиала МГУ. Узнав о конкурсе, который проводили Министерство высшего и среднего специального образования, Министерство инновационного развития, Комитет по делам религий, Центр исламской цивилизации и другие партнеры, загорелась желанием попробовать силы в интеллектуальных «баталиях» и в который раз презентовать свою любимую науку.

Прошла отборочные этапы – оказалась в тридцатке сильнейших. Под руководством Назокат Кариевой разработана авторская методика (на двух языках – узбекском и русском) определения уровня доверия к организации, то есть инструментарий для психологов предприятий, учреждений. Методика может быть полезной и для руководителей, и для HR-менеджеров.

– Имеющийся инструментарий устарел и нуждается в обновлении, – поясняет девушка. – Доверие в современном мире играет важную роль. Причем во всех сферах жизни. Сотрудники увольняются с одного места, не могут устроиться на другую работу. Где-то наблюдается текучесть кадров. То есть организациям нужна психокоррекция. Наша методика направлена на повышение организационной структуры.

На церемонии награждения удалось пообщаться с некоторыми финалистами конкурса. Знать, что у нас в стране немало одаренных ребят, которые горят своим делом, – это здорово! Наука, творчество идут вперед, задают тон молодые. Было приятно находиться в таком научном обществе. Впечатления невероятные! И мне удалось поднять престиж своего университета, который создает возможности для творчества, реализации студенческих инициатив.

В жизни Олеси Баловой произошло еще одно радостное событие: ее избрали делегатом на форум молодежи и студентов. В преддверии масштабного мероприятия поделилась своими ожиданиями:

– Думаю, будет нечто грандиозное, оригинальное, овеянное новизной. С нетерпением жду встречи с главой государства. Наш Президент уделяет молодежи огромное внимание, оказывает высокое доверие, называя инициативных юношей и девушек строителями Нового Узбекистана. Мы находимся на пороге Третьего Ренессанса, когда наши открытия могут послужить процветанию родной страны, стать отправной точкой для будущих поколений.

Также будущий организационный психолог крупного предприятия представила свое видение Союза молодежи Узбекистана как структуры, объединяющей поколение, стремящееся делать историю, совершенствовать общество.

Конечно, девушка рассказала, как работает молодежная организация ее вуза, – союз отважных, которые занимаются общественной работой всем вирусам назло. Подчеркнула, что студенты филиала МГУ – активные исследователи и участвуют в конференциях головного вуза и университетов республики. Ежегодно отправляют тезисы на научный форум «Ломоносов». Традиционными интеллектуальными состязаниями и спортивными турнирами встречают День Конституции и День защитников Родины. Среди ребят много творчески одаренных, поэтому конкурсы, посвященные поэтам и писателям, музыке, привлекают немало любителей прекрасного. К примеру, 580-летие со дня рождения Алишера Навои отметили онлайн выразительным чтением ряда его произведений. Причем учитывалась артистичность. Интересно представили традиции Навруза, накануне Дня памяти и почестей на территории университета звучали песни военных лет... А за лучшее исполнение композиций из репертуара вокально-инструментального ансамбля «Ялла» «артистов» награждал сам Фаррух Закиров. К слову, встречи с интересными людьми здесь проводятся регулярно. О соревнованиях и говорить не приходится: со спортом у студентов крепкая дружба. Особой популярностью пользуются благотворительные ярмарки, у коллектива добрые отношения с домами «Мехрибонлик», школами-интернатами.

Олеся мечтает стать высококвалифицированным специалистом и помогать людям, поэтому собирается продолжить образование в магистратуре. В завтра возьмет опыт единомышленников, молодую энергию, заряд творчества – все, что помогает повышать доверие...

**Ольга ВОЛОДИНА**

РАЗГОВОР О ВАЖНОМ

# ПРОФЕССИЯ – РОДИНУ ЗАЩИЩАТЬ

В рамках месячника молодежи в хокимияте Ходжейлийского района Республики Каракалпакстан состоялась встреча «Руководитель и молодежь»







О профессии Родину защищать выпускникам общеобразовательных школ рассказывал заместитель министра обороны по материальному обеспечению полковник Зоир Базарбаев. В коротком, но емком биографическом повествовании перед юношами и девушками предстал путь становления офицера Вооруженных сил Узбекистана. Говорил выступающий о том, как формировалась армия суверенного государства

Внимательные слушатели засыпали столичного гостя вопросами. Поначалу лидировали представители сильного пола. Спрашивали обо всем: о конкурсе на прохождение срочной военной службы, организации месячной службы в мобилизационно-призывном резерве, распорядке дня воинских частей, работе с личным составом, подготовке офицерских кадров в военно-образовательных учреждениях... Интерес к мельчайшим подробностям будней военнослужащих свидетельствовал о том, что многие из присутствующих хотят сначала пройти солдатскую закалку, проверить себя и лишь потом поступать в ВВОУ.

Ребята смелели по ходу встречи, и в разгаре мероприятия поначалу робкие вопросы превратились в суждения об облике современного военнослужащего – патриота, отличного специалиста, умеющего принимать нестандартные решения, гармонично развитой личности.

Примечательно, что молодежь высказывала предложения, и здесь лидерство перешло к девушкам. Именно они ратовали за организацию на местах подготовительных курсов для поступления в высшие военно-образовательные учреждения, чтобы курсанты начинали обучение с хорошей стартовой базой знаний, умений и навыков. Озвучили представительницы прекрасного пола и желание выступать в специальных женских военизированных конкурсах на полигонах.

В завершение Зоир Базарбаев и заместитель командующего Северо-Западным военным округом полковник Улугбек Дусматов вручили книги самым активным участникам встречи.

**Полина ЛЮДИНИНА**

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана 30-iyun – Yoshlar kuni № 22-23 (16429) 2021-YIL 30-IYUN 13

SAXOVAT

# Qatoringda nor bo'lsa, yuking yerda qolmagay!

**Yurtimizga koronavirus infeksiyasining kirib kelishi xalqimizning qay darajada birdam va saxovatpesha ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Ayniqsa, yosh avlod vakillarining jonini jabborga berib, shifokor-u maxsus xizmat xodimlari bilan yelkama yelka, shijoatkorlik bilan ko'rsatgan beminnat yordami tahsinga sazovor. Yoshlar ittifoqi atrofida birlashgan bir guruh ko'ngilli yoshlar pandemiya davrida xalqimiz og'irini yengil qilishga astoydil hissa qo'shdi. Buni yoshlarning pandemiya davrida amalga oshirilgan loyihalardagi faolligi ko'rsatib turibdi. Jumladan:**

## ! "KORONAVIRUSINFOUZ" TELEGRAM KANALI ISHGA TUSHURILDI;

- Karantin paytida o'quvchilarning sifatli bilim olishlari uchun "Masofaviy ta'lim" telegram kanali ish boshladi. Kanalga 6 millionga yaqin yoshlar, 140 dan ortiq dars materiallari jamlandi;
- "Uyda qol – foyda ol" onlayn tanlovi tashkil etilib, unda 35 ming yosh ishtirok etdi, 36 nafar eng ilg'or ishtirokchi munosib taqdirlandi;
- "Modul 5" loyihasi orqali "YouTube" tarmog'idagi 31 ta spikerning chiqishlarini 7,2 mingdan ortiq yoshlar kuzatib bordi;
- Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida tez va xatosiz yozishni o'rgatish maqsadida "TezYoz" onlayn platfomasi ishlab chiqildi. Tezyoz.uz saytidan 7 600 nafar yoshlar foydalanmoqda;
- 8 000 dan ortiq video darslarga ega maxsus o'quv portali yaratilib, yoshlar orasida targ'ib qilindi;
- "Youtube"da "Yosh tadbirkorlar" media kanali ishga tushirildi. Loyihada soha vakillari bilan intervyular, 50 ta onlayn muloqot va biznes tavsiyalar berildi;
- "Harvard Business Review"ning biznesda inqiroz vaziyatidan chiqish bo'yicha tavsiyanoma kitobi tarjima qilindi. Kitob elektron shaklda bo'lib, ommaviy axborot vositalari orqali tarqatildi;
- 870 nafar volontyor "Call-markaz"larda aholi murojaatlari bilan shug'ullandi;
- Ming nafar ehtiyojmand oila otaliqqa olinib, holidan xabar olib turildi;
- Volontyorlar ko'magida Birdamlik.uz veb-sayti va telegram ijtimoiy tarmog'ida @XayriyaMarkaziBot yaratildi;
- "O'zbekistonda Frilanc istiqboli" mavzusida 5 qismdan iborat onlayn forumda 5 000 dan ortiq yoshlar ishtirok etdi;
- Har kuni o'rtacha 5 ming nafardan ortiq volontyor yoshlar ijtimoiy-maishiy tadbirlarni tashkil etishga jalb etildi.

## "SARDOBA" SUV OMBORI TOSHQINI OQIBATIDA JABRLANGANLARGA YOSHLAR ITTIFOQI VA HAMKORLAR TOMONIDAN KO'RSATILGAN MODDIY VA MA'NAVIY YORDAMLAR

**! O'QUVCHILAR UCHUN:**

- 5 500 dan ortiq badiiy kitob va bolalar adabiyotlari;
- 5 428 dona jurnal;
- 20 turdagi o'quv qurollari va 12 turdagi 818 dona sport anjomlari ajratildi.

**! HUDUDIY KENGASHLAR TOMONIDAN:**

- 174,6 million so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari;
- 545,6 million so'mlik kiyim-kechak va kundalik xo'jalik mahsulotlari yetkazildi;

**! HOMIYLAR TOMONIDAN:**

- 135,8 million so'mlik kiyim-kechak va tibbiy sanitariya vositalari;
- 5,7 million so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari yetkazildi.

МОЛОДО – НЕ ЗЕЛЕНО!



# ВЫСШЕЕ ДОСТИЖЕНИЕ – ШАГИ К ЗДОРОВЬЮ



**Активные юноши и девушки в трудном 2020-м показали, как могут заботиться о родителях, бабушках и дедушках, вдруг попавших в группу риска. И на будущее поставили перед собой задачу укреплять здоровье населения.**

**Члены Ассоциации студентов-медиков Узбекистана отмечают: их инициативы находят поддержку у руководства вузов и структур здравоохранения.**

## Мы за профилактику



**Азам ЛАЗИЗОВ, президент ассоциации, выпускник Ташкентского педиатрического медицинского института:**

– Будущие врачи проверку на прочность во время жесткого карантина выдержали. В рамках проекта «Дыши, Узбекистан!» ездили по домам и устанавливали кислородные концентраторы. За бескорыстный труд удостоены нагрудного знака «Мехр-саховат».

Когда напряжение пандемии спало, возобновились программы по академическому обмену. Руководство ТашПМИ поддерживает молодежные инициативы. Именно благодаря этому в прошлом году мы смогли принять участие в медицинском студенческом форуме, проходившем в Африке (1500 представителей из 150 стран). Его сертификат дает право обучать других волонтеров.

Укрепление здоровья населения – главная задача медицинских работников. Особенно важны профилактика, пропаганда ЗОЖ. К примеру, во время Всемирной недели рационального употребления антибиотиков мы проводили занятия в детских садах и школах, выступали в махаллях. Рассказывали о вреде бесконтрольного приема препаратов и самолечения. Устраивали конкурсы в социальных сетях. Дети получали информацию в игровой форме.





## Заняты общим делом



**Лаура БЕКМУЛЛИНА, студентка 5-го курса ТашПМИ:**

– Хотя у нас и существует разделение на комитеты, обособленности нет. В акциях принимает участие каждый. Делаем общее дело.

Пандемия показала, что студенты готовы исполнить свой врачебный долг. Именно из них сформировался отряд добровольных помощников, вооруженных принципами Авиценны: «Паника – это половина болезни, спокойствие – это половина здоровья». Столкнувшись с общемировой проблемой, волонтерское сообщество будет еще активнее пропагандировать здоровый образ жизни.

Нужно работать над собой. Соблюдать режим сна, правильно питаться, чаще проветривать помещение, больше двигаться, делать зарядку. Ходить пешком. Лучше пройти несколько остановок, чем ехать в переполненном транспорте.

Молодежь часами сидит за компьютерами или уткнувшись в телефоны. Нарушается кровообращение, что может привести к серьезным последствиям. И те, кто занимается часами напролет, рискуют здоровьем. Рекомендую фитнес-браслеты, напоминающие о разминке.

Мы много говорим о поддержке юношей и девушек на разных уровнях, но здоровье они должны поддерживать сами.

## Успех рождается в команде



**Жавахир ОХУНОВ, студент 3-го курса Университета AKFA:**

*– Администрация, которая откликается на студенческие инициативы, дает возможность интересно и с пользой организовать досуг. Спортивные соревнования, творческие вечера, поездки в горы – неотъемлемая часть нашей жизни. Совмещаю руководство вузовской первичкой Союза молодежи с волонтерской деятельностью.*

*Ассоциация студентов-медиков – своеобразная форма поддержки юношей и девушек. Будущие специалисты приобретают опыт санпросветработы, общения с разными возрастными группами.*

*Нам приходится говорить и о репродуктивном здоровье. До сих пор часть общества воспринимает его как нечто само собой разумеющееся.*

*С помощью интерактивных лекций, наглядных пособий, тематических роликов формируем правильное отношение к ВИЧ-инфицированным, закладываем фундамент антистигмации в обществе.*



## Карантин сделал нас сильнее



**Севинч КУРБАНОВА, выпускница ТашПМИ:**

*– Проводимые мероприятия показали, насколько важно вовремя научить, предостеречь, посоветовать. И самое большое достижение – шаги наших слушателей и зрителей к здоровью. Если хотя бы несколько мальчишек из класса, где прошла акция против курения, не попробуют сигарету – маленькая, но значимая победа. А если они убедят во вреде табака своих друзей – победа вдвойне.*

*В мае запущен марафон «Пора отказаться от табака!». При поддержке ВОЗ совместно с U-Report провели опрос «Отношение молодежи Узбекистана к курению». Для демонстрации в социальных сетях в партнерстве с Ассоциацией студентов-медиков Казахстана подготовили видеопризыв «100 причин отказаться от табака». Желающим бросить курить предлагаем цифрового помощника «Флоренс».*

*Организовали кампанию по профилактике инфекционных заболеваний. Не сомневаюсь, ребята рассказали мамам, кому дается право назначать лекарства.*

*Год поддержки молодежи и укрепления здоровья населения встретила с надеждой. Многое сейчас в руках юношей и девушек: им доверяют ответственные посты, серьезные проекты. Подрастающее поколение учится и трудится, реализует идеи с заботой о будущем родной страны. Пандемия лишь подтвердила это. Карантин сделал нас сильнее. Быстро реагируя на проблемы, осознали, что успех рождается в сплоченной команде, в единстве действий.*

## Душевное тепло – тоже лекарство



**Шахзода ХОДЖАЕВА, студентка 3-го курса Университета AKFA:**

–Увидев в интернете рекомендации по правильному питанию с экзотическими фруктами, дорогостоящими продуктами, наш комитет «Общественное здравоохранение» загорелся идеей представить в онлайн-формате приемлемый вариант с местными (более полезными!) дарами природы.

Посетили детское отделение онкологической клиники. Задумались: «Какие резервы у студентов? Большими средствами не располагаем, но в состоянии сделать пребывание в больнице комфортнее. Показать ребятам, что у них есть друзья. Ведь душевное тепло – это тоже лекарство».

В наших силах купить несколько комплектов постельного белья и мягкие одеяла, придумать полезные занятия, отвлекающие детей во время химиотерапии.

Для сбора средств проводим ярмарки, рассказывая о детском раке, убеждая в важности физической и моральной поддержки юных пациентов.

Записала Людмила ПОЛОНСКАЯ

*Zakovat qayerda bo'lsa, ulug'lik bo'ladi,*
*Bilim kimda bo'lsa, buyuklik bo'ladi.*

**Yusuf Xos HOJIB**





Mamlakatimizda

## 30-iyun — Yoshlar kuni

keng nishonlanmoqda. Fursatdan foydalanib, yurtimiz o'g'il-qizlarini, shu jumladan, viloyatimiz yoshlarini qutlug' sana bilan tabriklaymiz! Mustaqil O'zbekistonni dunyoga tanitish, uni eng rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish yo'lida kuch-g'ayratingiz va shijoatingiz hech qachon so'nmasin! Bunday sharafli yo'lda ishtiyoq va intilish bosh a'molingiz, ilm-fan qurolingiz, Yaratgan doim madadkoringiz bo'lsin!




**JIZZAX VILOYATI HOKIMLIGI jamoasi**

®

# "KAMALAK" – BOLALAR HAYOTINI YORQIN RANGLARGA TO'LDIRADI!

***Dunyoda bolalar quvonchidek samimiy tuyg'u bo'lmasa kerak. Ularning quvonchi jamiyatning baxt indeksi deb bemalol aytish mumkin. Shu bois bolalar huquqlarini himoya qiladigan, ularning orzu-istaklarini ro'yobga chiqaradigan mamlakat taraqqiyotiga ishonch bildirish mumkin.***

Ta'kidlash kerakki, "Kamalak" bolalar tashkiloti o'tgan yillar davomida oshkoralik, huquq va majburiyatlar tengligi tamoyili asosida iste'dodlilarni qo'llab-quvvatlash, yetti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalar orzusini ushaltirish yo'lida qator ijtimoiy loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Shu bilan birga, tashkilot yosh yetakchilar, "Kamalak" sardorlari uchun tajriba maydoni vazifasini o'tayapti.

Sardorlarimiz bugungi kunda sinfda, maktabda, tuman-shaharlarda, viloyat va respublika miqyosida faoliyat olib bormoqda. Sardorlar Kengashi tizimidagi ijtimoiy loyihalarda "Ittifoq", "Kamalak", "Ta'lim", "Imkon", "Madaniyat", "Matbuot va media", "Sport" va "Ekologiya" yo'nalishlarida bolalar tashabbuslari aks etgan. Bu loyihalar tengdoshlarning bir-biri bilan do'stlashishi, bitta g'oya atrofida birlashishi, eng muhimi, o'zi qiziqqan kasbga yo'naltirib borilishida qo'l kelayotir.

"Kamalak" bolalar tashkiloti tashabbusi bilan Xorazm viloyati Xiva shahrida o'tgan yil 24-27-noyabr kunlari "I Respublika sardorlar forumi" tashkil etildi. Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan jami 196 nafar hududiy sardorlar, 12 nafar hududiy "Ittifoq" raislari ishtirok etdi.

"Bola huquqlarini himoya qilishdagi kamchiliklar, muammolar va yechim" mavzusida I Xalqaro Bolalar Onlayn Konferensiyasi barcha rivojlangan davlatlarda keng jamoatchilik diqqatini bolalar muammolariga qaratib kelyapti. Unda bolalarning huquqlarini himoya qilish, xavfsiz dunyoda yashash imkoniyatini yaratib berish va baxtli bolalikka ega bo'lishiga katta e'tibor qaratiladi. Shuningdek, bolalar o'z mamlakatining to'la-to'kis va xotirjam fuqarosi bo'lib o'sishlari maqsad qilib olingan. Buni amalga oshirish uchun konferensiya ishi bolalar siyosatida amalga oshirilayotgan ishlar tizimini tahlil qilishga qaratilgani bilan ahamiyatli. Ushbu konferensiyaning Toshkent shahridagi "Yoshlar ijod saroyida" bo'lib o'tgani mamlakatimizda bolalar huquqlari va tengligini ta'minlash borasida olib borilayotgan siyosatga ishonch bildirilganini anglatadi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi mahalliy hamda hududiy press-klub sardorlarini o'qitish, faoliyatini yanada takomillashtirish, malakasini oshirish, uslubiy ko'mak berish maqsadida 2020-yilning 28-29-fevral kunlari Farg'ona shahridagi Yoshlar markazida Toshkent shahar, viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasidan press-klub sardorlari hamda Farg'ona viloyatining 19 ta tuman (shahar) press-klub sardorlari uchun "Kamalak" bolalar tashkilotining media forumi" o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning joylardagi ijrosini ta'minlashga qaratilgan forum bolalar hayotida yangi sahifa ochdi. Unda yoshlar o'rtasida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ijodiy fikrlashga o'rgatish, kompyuter grafik dizaynerlik mahoratini kuchaytirish, yoshlarning media savodxonligini oshirish, kasbga yo'naltirishga katta ahamiyat berildi. O'quv-seminarlarda malakali trener va lektor sifatida O'zbekiston yoshlar ittifoqi media markazi xodimlari tomonidan mahorat darslari tashkil etildi. O'quv-seminar "Kreativlik siri. Boshlovchi, operator, montajchi bir insonda", "Dublyaj, chiroyli gapirish, intervyu san'ati", "Bor imkoniyatdan foydalanib, bir telefonda press-klub sardorining vazifasini bajarish", "Ijtimoiy roliklar va ta'sirli videolarni suratga olish sirlari", "Grafik dizaynerlik, Adobe Photoshop, Adobe Illyustrator dasturlaridan foydalanish qoidalari", "Yoshlar muammolariga jurnalistik yechim. Saytlardagi jamiyat va adabiyot haqidagi suhbatlar haqida fikrlar" kabi mavzularda mahorat darslari tashkil etildi. "Media forum" doirasida ishtirokchilar Marg'ilon shahrida joylashgan Burhoniddin Marg'inoniy ziyoratgohi, "Vodiy tulporlari" ot sport majmualariga tashrif buyurdi.



Respublika "Kamalak" bolalar tashkiloti tomonidan har yili an'anaviy tarzda tashkil etib kelinayotgan "Kamalak yulduzlari" bolalar ijodiyoti festivali o'quvchi-yoshlarni ilm-u iste'dod cho'qqilari sari yetaklamoqda. Aytish kerak, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi homiyligida Respublika "Kamalak" bolalar tashkiloti, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Respublika Badiiy akademiyasi, Bastakorlar uyushmasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda "Tasviriy oyina" ijodiy uyushmasi hamkorligida o'tkazib kelinyotgan ushbu tanlov iqtidorlarni yuzaga chiqarish, iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga qaratilgan eng katta festival hisoblanadi.

Festival iqtidorli bolalarni aniqlab ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun imkoniyat yaratishga xizmat qilmoqda. Unda yosh avlodning ma'naviy olamini boyitish, ilm-fan va san'at sirlarini egallashga ruhlantirish va intilishlarini rag'batlantirish uchun 7 yoshga to'lgan va 14 yoshdan oshmagan bolalar qamrab olinmoqda. Bu endi dunyoni tanib, o'z qiziqishlarini oshkor qilishni boshlagan bolalar kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda "Kamalak" bolalar tashkiloti mamlakatimizda olib borilayotgan bolalar siyosatiga munosib hissa qo'shish, bolalarimiz yorqin kelajagi uchun zamin yaratish tarafdori. Tashkilot bu yo'lda mavjud imkoniyatlaridan to'la foydalangan holda bolalar orzusini ro'yobga chiqarishda davom etadi. Zero, bolalar quvonchi, ularning baxti xalq tinchligi va jamiyat farovonligi garovidir.

**Indira XOLDAROVA,**
**O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisining o'rinbosari, "Kamalak" bolalar tashkiloti raisi**

# Yoshlar tashkiloti – hayot maktabim

***Bilasizmi, yoshlik chog'larimning eng yorqin damlari "Kamalak" bilan bog'liq. Negaki men bu yerda chin do'stlar orttirdim, mehribon va tajribali ustozlardan saboq oldim. Respublika sardori bo'lish esa men uchun katta tajriba maktabi bo'ldi.***



*2018-2019-o'quv yili juda mas'uliyatli bo'lgan men uchun. Ayni shu davr mobaynida butun respublikamizdagi sardorlarga yetakchilik qildim. Mamlakatimiz yoshlari menga katta ishonch bildirib, yelkamdagi mas'uliyatni ikki karra oshirishdi.*

*Eng asosiysi, tashkilot meni qaytadan kashf qildi. 12 yoshli bolakay qalbidagi orzular uchqunini ro'yobga chiqardi. Bugun, mana, talabaman. Tizimdagi faoliyatim munosib baholanib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qaroriga muvofiq davlat granti asosida o'qishga qabul qilindim. Keyingi faoliyatim ham sevimli tashkilotim bilan bog'liq bo'ladi. Yillar davomida orttirgan bilim va ko'nikmalarimni yoshlarni kashf etishga, ularni qo'llab quvvatlashga sarflayman.*

**Javohir HUSENOV**

*Navoiy viloyati*

# Biz uddalaymiz!

***Respublikamizda tengdosh qizlar orasida birinchi bo'lib "Ittifoq" sardori degan sharafli nomga sazovor bo'lish orzumga aylandi. 2017-yildan buyon sardorlar saylovida ishtirok etaman, 3 yil davomida eng yaxshisiga umid qildim va eng yomoniga tayyor turdim. Sardorlar Saylovlarida farg'onalik Qilichbek Qurbonov, navoiylik Javohir Husenov, sirdaryolik Boymurod Yunusov ketma-ket saylanishdi. Men esa orzumdan qaytmadim, ishondim. Ko'proq mehnat va kamroq uyquni tanladim.***

*Respublikamizda faoliyat olib borayotgan sardorlarga havas qilib, ulardan tajriba o'rgandim. Hasadni berkitishning iloji yo'q. U seni boshqaradi. U xuddi peshonangdagi xolga o'xshaydi. O'zingdan boshqa hammaga ko'rinadi deganlaridek, orzularimga – havas va mehnat orqali erishdim. 2020-yilda esa mamlakat sardori etib saylandim, istalgan sohada katta muvaffaqiyatga erishish mumkin, faqat shu sohaning chinakam ustasi bo'lish darkor. Qiz bola ekanim hech nimani va hech qanday vaziyatni o'zgartirmaydi, men berilgan vazifalarni 110 foizga bajarishga doim tayyorman. Xotin-qizlar qo'llab-quvvatlanayotgan jamiyatda yashayotganimdan mamnunman. "Men" emas, "biz" – UDDALAYMIZ! – bu aniq.*



**Marjona JO'RAQULOVA,**
**Respublika "Ittifoq" sardori, "Mehr-saxovat" ko'krak nishoni sohibasi**

Bilim, ma'rifat, albatta, yaxshi xulq bilan bezatilmog'i lozim.

*Abu Nasr FOROBIY*




***O'zbekiston — yoshlar mamlakati. Bu diyorda farzandlarimizning chuqur bilim olib, komil shaxs bo'lib voyaga yetishi uchun barcha imkoniyatlar safarbar etilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlar tub zamirida yoshlar manfaatlari yotganini alohida e'tirof etish joizdir. Biz mamlakat yoshlarini 30-iyun — Yoshlar kuni bilan qutlar ekanmiz, barcha o'g'il-qizlarni yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, puxta bilim egallashga chorlaymiz!***



# XORAZM VILOYATI XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI JAMOASI

®

INNOVATSIYA

# O'ZBEKISTON UCHUN 100 G'OYA



*So'nggi besh yilda mamlakatimiz yoshlarini har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalash uchun zarur shart-sharoit yaratish, bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar ko'lami kengayib, muntazamlik kasb etib bormoqda.*

Joriy yil boshidan yoshlarga bag'ishlangan bir qator istiqbolli loyihalar doirasida yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, jismonan sog'lom voyaga yetkazish, ilmiy hamda ijodiy intilishlarini ro'yobga chiqarish, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish, mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarga faol jalb qilish borasida salmoqli ishlar qilindi.

Shu yilning 27-yanvar kuni Prezidentimiz raisligida bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida iqtidorli yoshlarni kashf qilish, ularning tashabbus va intilishlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida "O'zbekiston uchun — 100 g'oya" loyihasini amalga oshirish taklifi ilgari surilgan edi. Loyiha doirasida shahar va qishloqlardagi tashabbuskor yoshlarning iqtisodiyot, ta'lim, sport, sog'liqni saqlash, axborot texnologiyalari kabi sohalardagi g'oyalarini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratilishi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, IT-park va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta tashabbusi loyiha ofisi tomonidan tashkil etilayotgan "O'zbekiston uchun — 100 g'oya" tanlovi davlatimiz rahbarining yuqorida qayd etilgan topshiriqlariga to'la mos keladi va respublikamiz yoshlarining mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladigan g'oyalari, takliflarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Mazkur tanlovda 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston yoshlari mamlakatni rivojlantirishga oid, shuningdek, muayyan sohalarda mavjud bo'lgan muammolarga o'z fikrini bildirish va ularga yechim bo'la oladigan g'oya va takliflari bilan ishtirok etishi ko'zda tutilgan. Bu bilan yoshlarda mamlakat taraqqiyotiga daxldorlik hissini uyg'otish va eng asosiysi, chekka hududlardagi yoshlarning fikrini eshitib, ularning ilg'or g'oyalarini amalga tatbiq etishga yordam berish ko'zda tutilgan.

## TANLOV QUYIDAGI YO'NALISHLARDA O'TKAZILMOQDA:

1. Ilm-fan, ta'lim va sog'liqni saqlash;
2. Madaniyat va san'at;
3. Media;
4. Sport va turizm;
5. Davlat xizmatlarini rivojlantirish;
6. Qurilish, arxitektura va transport;
7. Tadbirkorlik va bandlik;
8. Qishloq xo'jaligi, irrigatsiya va agrotexnologiyalar;
9. Axborot texnologiyalari va innovatsiyalar;
10. Ekologiya, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va kimyo texnologiyalari.



Tanlov e'lon qilingan dastlabki kunlardanoq aksariyat yoshlarda katta qiziqish uyg'otdi. Shu kunga qadar tanlovda qatnashish uchun jami 22863 ta murojaat kelib tushgan.

Xo'sh, qabul qilingan arizalar orasida qaysi sohadagi g'oyalar peshqadamlik qilmoqda? Quyida bu boradagi ma'lumotlar bilan tanishasiz:

Eng ko'p ariza Ilm-fan, ta'lim va sog'liqni saqlash yo'nalishiga kelib tushgan bo'lib, jami 5359 tani tashkil etmoqda. Shuningdek,

— Tadbirkorlik va bandlik yo'nalishiga — 4750 ta;

— Axborot texnologiyalari va innovatsiyalar yo'nalishiga — 1950 ta ariza kelib tushgan.

Hozirgi kungacha qatnashish istagidagilarning hududlar kesimidagi tahlili (foiz ko'rsatkichida) quyidagicha:

— Toshkent viloyatidan — 12,69 %;

— Xorazm viloyatidan — 12,68 %;

— Samarqand viloyatidan — 11,05 %.

Arizalar kelishda davom etmoqda.

Mazkur tanlov har tomonlama foydali va samarali bo'lishi, shubhasiz. Sababi, uning doirasida har bir hududda yoshlar uchun 2 kunlik tadbir va motivatsion uchrashuvlar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Respublikaning eng iqtidorli va tashabbuskor yigit-qizlarini birlashtiruvchi loyiha umumiy hisobda 30 000 nafar yoshni qamrab oladi. Bu raqam tanlovning ahamiyati va dolzarbligini tasdiqlab turibdi.

Shuningdek, eng yaxshi loyihalar moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi kutilmoqda. Shu bois ushbu loyiha mamlakat yoshlari hayotida muhim o'rin tutadi.

**Iqbol PARDAYEVA**

# "YANGI O'ZBEKISTON" UNIVERSITETIGA ASOS SOLINDI

***O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 23-iyun kuni "Yangi O'zbekiston" universitetini tashkil etish to'g'risida"gi qarorni imzoladi.***

Barcha sohalarda o'z oldiga katta maqsadlar qo'ygan O'zbekistonda ta'lim sifatiga, bilimli kadrlarni tarbiyalashga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, har bir mamlakatning taraqqiyotini, kelajagini bilimli va aqlli odamlar ta'minlaydi.

Barcha hududlarda Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi. Bu yoshlarning bilim va salohiyatini aniqlash, ularni to'g'ri yo'naltirish bilan birga xalqimiz orasida katta intilish to'lqinini ham paydo qildi.

Davlatimiz rahbari bilimli yoshlarni mamlakatimizning "oltin fondi" deb atagan edi. Bu yil ana shunday yoshlarning yangi avlodi maktablarni bitirmoqda. Endi ularni yurtimizda o'qitish, yoshlar uchun eng zamonaviy sharoitlar yaratish maqsadida Prezidentimiz tashabbusi bilan "Yangi O'zbekiston" universitetiga asos solindi.

Bu universitet davlat oliy ta'lim muassasasi shaklida tashkil etiladi. Uning asosiy vazifalari – nufuzli xorijiy o'quv yurtlarining ta'lim dasturlari asosida yuksak kasbiy bilim va malakalarga ega bo'lgan istiqbolli kadrlar tayyorlash, talabalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish, buning uchun har tomonlama qulay muhitni shakllantirishdir.

Shu maqsadda yangi universitetda ta'lim jarayoni dunyoning eng nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi. Masalan, qabul imtihonlari Kembrij universiteti bilan hamkorlikda o'tkaziladi. Massachusets texnologiya instituti hamda Myunxen texnika universiteti bilan birgalikda o'quv reja va dasturlar ishlab chiqiladi. Shuningdek, ular ta'lim sifatini nazorat qilish, laboratoriya va kutubxonalarni to'ldirishga ko'maklashadi.

Universitetda 5 ta – muhandislik, tabiiy fanlar, boshqaruv, agrotexnologiyalar va axborot texnologiyalari fakultetlari bo'ladi. Darslar o'zbek va ingliz tillarida olib boriladi. Kredit-modul tizimi joriy etilib, o'qish davlat granti va to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

Ushbu ta'lim maskanining o'quv binosi va kampuslari ham zamonaviy, xalqaro BREEAM sertifikatlariga mos bo'ladi. Ilk o'quv yili shu yil sentyabrdan boshlanadi. Yangi bino qurilguncha darslar Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining bo'sh binolarida vaqtinchalik o'tib turiladi.

Iqtisodiyot tarmoqlaridagi ehtiyojlardan kelib chiqib, ilmiy tadqiqotlar olib borish, talabalarni ilmiy va innovatsion faoliyatga keng jalb etish ham universitetning asosiy vazifalaridan. Shu maqsadda dunyoning yetakchi universitet va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yiladi, ilmiy jurnal ta'sis etiladi.

SENING TENGDOSHING!

# ZULMATLARNI PARCHALAB KELAYOTGAN XAYRULLA



***Koʻzi ojiz insonlar nimani koʻradi? Koʻz oldidagi qop-qora zulmatnimi yoxud yorqin nur parchalarini? Balki, shunchaki rangsiz boʻshliqni koʻrishar?..***

***Ammo ular orasida shunday insonlar borki, ular tom maʼnoda oʻz kelajagini koʻra oladi!***

Bunday insonlarni har doim ham uchratavermaysiz, ayniqsa, ular oʻz kelajak hayotini ilm yoʻli bilan tutashtirgan boʻlsa. Shundaylardan biri — Xayrulla Ruhiddinov Toshkent viloyatining Parkent tumanida istiqomat qiladi.

Koʻzi ojizligiga qaramay, IELTS imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirib, B6 darajasini qoʻlga kiritdi, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universitetining bakalavriat bosqichini tamomlab, magistraturani AQShning Vebster universitetida davom ettirmoqda.

Albatta, muvaffaqiyatlarga oʻz-oʻzidan erishilmaydi. Buning zamiridagi ming ranj-u mashaqqatni tengdoshimiz qanday yengib oʻtdi, uning yutuqlarining siri nimada, u fazilatlari bilan boshqalardan ajralib turadi? Buni parkentlik Xayrulla Ruhiddinov hayoti misolida koʻrib chiqamiz.

Qahramonimiz – "Kelajak bunyodkori" medali sohibi Ruhiddinov Xayrulla Xayriddin oʻgʻli 1995-yili Parkent tumanida, oddiy oilada dunyoga kelgan.

"Koʻzim ojiz tugʻilganman. Lekin bunday holat shu vaqtgacha biron-bir qarindoshimizda kuzatilmagan"...

Ota haydovchi, ona hamshira boʻlib ishlaydigan oilaning moddiy ahvoli haminqadar boʻlsa-da, farzandining koʻzlari ochilishi uchun koʻp harakat qilishdi. Qayerda yaxshi koʻz shifokori borligini yoki chet eldan kelganini eshitib qolishsa, farzandini opichlab, qabuliga shoshilardi. Butun oila umid bilan yashardi.

"Men ham umid bilan yashadim, koʻrish umidi bilan, to 7 yoshimgacha. 7 yoshimda meni koʻzi ojiz bolalar uchun tashkil etilgan bogʻchaga berishdi. Bu yerda men oʻzimni ojiz his etardim, onamga juda qattiq bogʻlanib qolgan edim. Kechki payt onam menga ovqat olib kelib, koʻrishmoqchi boʻlsa, bogʻcha opalar kelganini sezdirmasligini iltimos qilishardi. Onamning ovozini eshitardim, ammo menga bu haqida hech nima deyishmas edi".

Yillar oqar daryo. Oʻrta maktab va internatni tugatib, Parkentdagi kollejga oʻqishga kirgach, Xayrulla uchun haqiqiy hayot boshlandi. Sababi ayni shu yillarda u "Yashashimdan maʼno, kimgadir naf bormi? Jamiyat tugul oʻzimga-chi?", kabi savollarni oʻziga koʻp bera boshladi. Bu savollarning javobini badiiy kitoblardan izlashga qaror qilishi koʻz oldidagi zulmatni yoritish sari tashlagan ilk qadami boʻldi.

"Koʻcha-koʻyda odamlar "Vaqtim yoʻq, ishlarim koʻp, shoshilyapman", deyishganini eshitsam, oʻylanib qolardim: men ham kun kelib kimgadir shunday dermikanman, biror foydali ish bilan band boʻlarmikanman, atrofdagilarga nafim tegarmikin?.."

Uning ilm yoʻlidagi qatʼiyati, jasoratini kuzatib, viloyatdagi eng ilmga chanqoq yoshlar Parkentda jamlanganmi, deb oʻylab qolasiz. Mana, ulardan biri Xayrulla, kollej davrining soʻnggi yillarini tuman markazidagi repititorlik kurslariga qatnab oʻtkazdi. Goh singlisi, goh ukasining yetaklovida maqsadi sari intilishdan toʻxtamagan qahramonimiz hujjatlarini Oʻzbekiston davlat jahon tillari universitetiga topshirdi.

"Bu dargohga oʻqishga kirishimga hatto otam ham ishonmasdi. Bu men uchun, biz uchun erishib boʻlmaydigan bir choʻqqidek edi"...

Har qanday vaziyatda ham oʻz maqsadi sari dadil borgan inson mukofotdan quruq qolmaydi. Xayrullani ham shunday omad kutib turardi; u oʻzi orzu qilgan nufuzli universitet talabasi boʻldi! Uning bilimi imtihon olayotgan oʻqituvchilarni ham hayratga soldi.

Imtihon chogʻida oʻziga berilgan savollarga toʻliq javob berish bilan birga, bu savollar kitobning nechanchi betidagi mavzudan olinganigacha aytib bera olgan abituriyentning ota-onasi va ustozlariga rahmatlar yogʻildi.

Xorijiy til va adabiyoti yoʻnalishida tahsil ola boshlagan talabaning til oʻrganishga qiziqishi yanada oshdi. Universitet yotoqxonasidagi hayot, orttirilgan doʻstlar, "besh" bahoga topshirilgan sessiyalar, ilm olish, til oʻrganish ishtiyoqi — bularning barchasini Xayrulla "ajoyib davrlar edi" deb eslaydi.

OʻzDJTUni tamomlagan Xayrulla magistraturani AQShning Vebster universitetida davom ettirishni xohladi. Ammo moddiy ahvoli... Murojaat qilingan koʻp joylardan, tashkilotlardan yordam kutish behuda ekanini sezib, umidsizlikka tusha boshlagan bir vaqtda... "Alloh menga Alisher Saʼdullayevni roʻbaroʻ qildi, endi menda oʻqishga ishtiyoq yanada ortdi!".

Ha, Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Saʼdullayevning koʻmagi bilan 4 000 AQSh dollari miqdoridagi kontrakt pulining toʻlab berilishi nafaqat savobli ish, balki bir insonning ilm olishga boʻlgan ixlosini yanada oshirdi.

"Eng katta maqsadim... bu hayotga shunchaki kelib ketish emas, nimanidir oʻzgartirishim kerak! Bu dunyoda mendan qandaydir nom qolishi lozim. Mening sevimli jumlam bor: agar hayotimning istalgan vaqtida vijdonimdan "oʻlimga tayyormisan?" deb soʻraganimda "Ha" deb javob bera olsa, demak men niyatimga yetibman. Hayotdagi maqsadim ham shu muvaffaqiyatga erishish. Hayotda kichik boʻlsa-da yaxshilikka sababchi boʻlish har bir insonning burchi deb hisoblayman".

Xayrullaning havas qiladigan insonlari bor: "Ilm yoʻlida xayrli ishlar qilayotgan Muhammadqodir Eshonqulovni bilishlarini, Davronbek Turdiyevga qiziqishlarini istayman. Bu insonlarni koʻpchilik tanimaydi, bilmaydi".

Ammo u hech kimni ideal sifatida tanlamaydi. "Hayotda ideal inson yoʻq, ideallik sari intiladigan insonlar bor" — uning soʻzlaridan shundayin xulosaga keldik.

Xayrulla Ruhiddinov ayni paytda 84 foiz bitiruvchilari OTMlarga qabul qilinib, Toshkent viloyatidagi maktablar reytingida 1-oʻrinda turuvchi 5-ixtisoslashtirilgan davlat umumtaʼlim maktabida bolalarga ingliz tilidan dars bermoqda.

"Baʼzilar bor koʻzi ochiq, ammo qalban koʻr. Yana baʼzilar bor, koʻzlari muttasil zulmatni koʻrsa ham, qalbi doim uygʻoq va shu sababdan ayrim "koʻzi ochiq"lardan koʻproq intiladi, izlanadi va munosib yashaydi".

Shunday insonlarning hayotidan har qancha ibrat olsa arziydi. Hali yosh boʻlishiga qaramay, ibrat olarlik yoʻlni bosib oʻtgan va bu yoʻlda davom etayotgan Xayrulla Ruhiddinovga faqat va faqat omad tilaymiz.



**Ziyoda RAHIMBOYEVA,**
**OʻzJOKU talabasi**

*Odamning martabali bo'lishi uning hayoli va adabli bo'lishidadir.*

*Alisher Navoiy*






Bugungi kunda yurtimiz yoshlari xalqaro maydonda ilm-fan sohasida, nufuzli olimpiadalarda erishayotgan yutuqlari bilan nafaqat biz, ustozlar, balki butun xalqimizni quvontirmoqda. Bunday yutuqlar ko'lami yil sayin ortib borayotgani O'zbekiston kelajagi porloq ekanidan dalolat beradi.

Qalbimizda ana shunday ishonch va umid uyg'otayotgan barcha o'g'il-qizlarimiz, talaba yoshlarimizni yoshlik bayrami bilan qutlaymiz!

# Buxoro davlat universiteti jamoasi




®

**Ilm va odob tubsiz xazina. Kimki unga ega bo'lsa, qadr-u qimmati biland bo'ladi.**

**Otalar so'zi**




# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGINING SURXONDARYO VILOYATI BOSHQARMASI JAMOASI

**mamlakatimiz yoshlarini 30-iyun — Yoshlar kuni bilan tabriklaydi. Sizlarga ilm va kasb-hunar egallash yo'lida tuganmas ishtiyoq, kuch-g'ayrat hamisha yor bo'lsin!**

®

Aql ila olam yuzin obod qil,
Xulq ila olam yuzin shod qil.
Alisher Navoiy



***Aziz yoshlar, talabalar! Sizlarni yoshlik, shijoat va ko'tarinkilik bayrami — Yoshlar kuni bilan qutlaymiz!***

***Yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans davriga poydevor qo'yishdek mas'uliyatli jarayonda sizlarga ulkan zafarlar yor bo'lishini tilab qolamiz!***

# NAVOIY VILOYATI PEDAGOGIKA INSTITUTI JAMOASI



®





# AYOLLAR FAOLLASHMOQDA

***Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, ular uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash borasidagi ishlar izchillik bilan olib borilmoqda.***

Misol uchun, bugun boshqaruv lavozimlarida ayollarning ulushi 26,6 foizga yetgan. Bundan tashqari, oxirgi parlament saylovlarida respublikamizda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar orasida ayollar ulushi birinchi marta 32 foiz, Senat hamda mahalliy Kengashlarda esa qariyb 25 foizni tashkil etdi. Avvalgi chaqiriqda bu ko'rsatkichlar ikki barobarga kam bo'lgan.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning bilim olishi va jamiyatda munosib o'ringa ega bo'lishiga alohida e'tibor qaratilayotgani, ularga qo'shimcha imtiyozli kvotalar ajratilayotgani kelgusida gender tenglik nuqtayi nazaridan bu ko'rsatkich yanada yaxshilanishiga ishonsa bo'ladi.

**SO'NGGI IKKI YILDA OTMLARGA QABUL QILINGAN TALABALAR ORASIDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI QUYIDAGICHA O'SGAN:**



| T/r | O'quv yili | Jami | Shundan xotin-qizlar |
|---|---|---|---|
| 1 | 2019-2020-o'quv yilida OTMga kirgan yoshlar | 121 000 nafar | 76 158 nafar |
| 2 | 2020-2021-o'quv yilida OTMga kirgan yoshlar | 186 856 nafar | 85 888 nafar |



# VATAN — UY

**UY HAR BIR OILA UCHUN KICHIK VATANDIR. SHUNING UCHUN O'Z UY-JOYIGA EGA BO'LGAN INSON O'ZINI BAXTLI, ISHONCHLI VA HIMOYALANGAN HIS ETADI. UY OLISH ISTAGIDAGI YOSHLARNING ORZULARINI RO'YOBGA CHIQARISH YOSHLAR TASHKILOTINING KUN TARTIBIDAGI MUHIM VAZIFALARIDAN BIRIDIR.**

| HUDUD | UY OLGAN YOSHLAR SONI |
|---|---|
| Qoraqalpog'iston | 164 |
| Andijon | 81 |
| Buxoro | 181 |
| Jizzax | 218 |
| Qashqadaryo | 332 |
| Navoiy | 110 |
| Namangan | 117 |
| Samarqand | 301 |
| Sirdaryo | 67 |
| Surxondaryo | 178 |
| Toshkent v. | 240 |
| Farg'ona | 230 |
| Xorazm | 171 |
| Toshkent sh. | 1062 |



**2017-2020-yillarda 156 milliard 460,9 million** so'm boshlang'ich badal mablag'lari to'lanib, **3452 ta** yosh oila "Yoshlar uylari" bilan ta'minlandi. Jamiyat hayotida faol ishtirok etayotgan va yashash joyiga muhtoj bo'lgan yosh oilalarga dastlabki badal to'lovisiz uy-joylarning berilganligi ularning shijoatiga shijoat qo'shdi.

**"O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI TA'LIM GRANTI" LOYIHASI ORQALI 2017-2019-YILLARDA TO'LOV-SHARTNOMA ASOSIDA TAHSIL OLAYOTGAN IJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ 516 NAFAR TALABANING 1 MILLIARD 540 MILLION SO'MLIK TO'LOV — SHARTNOMA PULLARI TO'LAB BERILDI.**

Bundan tashqari, **2019-yilda** moddiy ta'minotga muhtojligi bor talabalarga to'lov shartnoma mablag'larining **35 foizi** Yoshlar ittifoqi tomonidan qoplab berildi.



**Jumladan:**

| HUDUD | TALABALAR SONI |
|---|---|
| Qoraqalpog'iston | 294 |
| Andijon | 615 |
| Buxoro | 655 |
| Jizzax | 217 |
| Qashqadaryo | 380 |
| Navoiy | 228 |
| Namangan | 296 |
| Samarqand | 400 |
| Sirdaryo | 110 |
| Surxondaryo | 389 |
| Toshkent v. | 94 |
| Farg'ona | 992 |
| Xorazm | 274 |
| Toshkent sh. | 2488 |



*Yoshlikda zahmat chekib, ilm o'rgansang, kasb-hunar egallasang, qariganda rohat topasan.*

*Husayn Voiz KOSHIFIY*




**Aziz yoshlar, sizlarni yurtimizda keng nishonlanayotgan Yoshlar kuni bilan chin qalbdan muborakbod etamiz! Zamonaviy bilimlarni egallashingizda ko'maklashish, tashabbus va g'oyalaringizni qo'llab-quvvatlash, orzularingizni ro'yobga chiqarishdek sharafli ishlarda sizlarga yelkadosh bo'lish bizga doim faxr bag'ishlaydi.**

## O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Qashqadaryo viloyati boshqarmasi jamoasi



R

# So'nggi 5 yil davomida davlat mukofoti bilan taqdirlangan yoshlar

- **37** — "Do'stlik" ordeni va "Shuhrat" medali
- **84** — "Mard o'g'lon" davlat mukofoti
- **45** — "Kelajak bunyodkori" medali
- **140** — Zulfiya nomidagi davlat mukofoti
- **213** — "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni
- **40** — "Nihol" mukofoti



# E'TIBOR ISTE'DODLARNI KASHF ETADI



Asliddin SABRIDDINOV, O'zJOKU talabasi



Feruza XAYRULLAYEVA, "Respublika yosh ijodkorlar kengashi" nodavlat-notijorat tashkiloti matbuot kotibi



Dilnoza ABDUHAMIDOVA, Yoshlar ishlari agentligi Navoiy viloyati boshqarmasi mutaxassisi

## O'zimga ishonchim ortdi

— "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlanishim menga, eng avvalo, talaba bo'lishimga yordam berdi. Qolaversa, yirik tadbirlarda o'z so'ziga ega shoir sifatida o'zimga bo'lgan ishonchim ortdi. Men kabi yoshlarning bunday mukofotlar bilan taqdirlanishi iqtidorlarning yuzaga chiqishiga turtki bo'ladi.

## Mukofot — mas'uliyat

— Ijodkor mukofot uchun yozmaydi, lekin har qanday kichik rag'batdan ham kuch oladi, ruhlanadi. "Zulfiya" mukofoti shunchaki imtiyoz bermadi, u bizga yanada mas'uliyatliroq bo'lish, boshqalardan ko'proq o'qib-izlanishga rag'bat berdi. Umid qilamanki, Zulfiyaxonimning barcha qizlari buni uddalay oladi.

## Bu meni faxrlantiradi

— Rag'bat, ishonch, e'tibor va e'tirof qaysi soha vakili bo'lmasin, kishining kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shadi, ishiga ishtiyoq va yangi-yangi rejalar sari intilishga undaydi. Men "Kelajak bunyodkori" medali sohibi sifatida Vatanimiz ravnaqi uchun ozmi-ko'p hissa qo'shayotganlar safida ekanimdan faxrlanaman!

## VATANPARVARLIK TARBIYASI

*Yoshlarni tom ma'noda jipslashtirish, Vatan, xalq manfaatlari yo'lida xizmat qiladigan avlod qilib ulg'aytirishda yoshlar tashkilotining o'z o'rni va ahamiyati borligi vaqt o'tgani sari isbotlanmoqda. Zero, yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ham yoshlarni vatanparvarlik hissi bilan ulg'aytirishga qaratilgan.*

• Qurolli Kuchlar tizimida 550 dan ortiq Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tuzildi.

• Boshlang'ich tashkilotga 90 mingga yaqin harbiy xizmatchilar a'zolikka qabul qilindi.

• Harbiy qism va harbiy ta'lim muassasalaridagi kutubxonalarga 18 mingdan ortiq o'zbek va jahon adabiyotining durdona asarlari berildi.

• Harbiy qismlardagi boshlang'ich tashkilotlar yetakchilari uchun 1000 dona uslubiy qo'llanma, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan 245 mingdan ortiq tarqatma materiallar tarqatildi.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida quyidagi musobaqalar o'tkazib kelinmoqda:

**"YOSH CHEGARACHI";**
**"YOSH O'T O'CHIRUVCHI";**
**"SHUNQORLAR";**
**"YOSH QUTQARUVCHI";**
**"BURGUT".**

O'tgan vaqt davomida bu musobaqalarga 180 ming nafarga yaqin yosh jalb qilindi.

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана

MUASSIS: O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR: Hamza ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB: Yelena KALININA
NAVBATCHI MUHARRIR: Iqbol PARDAYEVA
MUSAHHIH: Shahribonu RAHMATOVA
DIZAYNER: Zafar RO'ZIYEV

TAHRIRIYAT MANZILI: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.

Telefonlar: (71) 233-22-16. (71) 236-79-95.

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.
Hajmi – 6 bosma taboq.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41.
Indekslar: 203, 3203
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-655
Adadi – 10687
Bosishga topshirish vaqti – 21.00
Topshirildi – 00.45

1 2 3 4 5 6